

ISSN 2181-9505  
Doi Journal 10.26739/2181-9505

# Philosophy and Life

FALSAFA VA HAYOT • ФИЛОСОФИЯ И ЖИЗНЬ

2020 №1 (8)



**ISSN 2181-9505  
Doi Journal 10.26739/2181-9505**

**O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi huzuridagi  
Imom Buxoriy xalqaro ilmiy-tadqiqot markazi  
O‘zbekiston falsafa jamiyati**

**Международный научно-исследовательский центр Имам Бухари  
при Кабинете Министров Республики Узбекистан  
Философское общество Узбекистана**

**Imam Bukhari International Research Center under the Cabinet of Ministers  
of the Republic of Uzbekistan  
Philosophical Society of Uzbekistan**

**FALSAFA VA HAYOT  
XALQARO JURNAL**

---

**ФИЛОСОФИЯ И ЖИЗНЬ  
МЕЖДУНАРОДНЫЙ ЖУРНАЛ**

---

**PHILOSOPHY AND LIFE  
INTERNATIONAL JOURNAL**

**2020 № 1 (8)**

Jurnal bir yilda 4 marta nashr qilinadi.  
Журнал выходит 4 раза в год.  
The journal is published 4 times in a year.



**Toshkent - 2020**

**Falsafa va hayot xalqaro jurnal**  
**Философия и жизнь международный журнал**  
**Philosophy and life international journal**

**Tahrir kengashi:**

**Abdildina, R.J.** – Qozog’iston FA akademigi, f.f.d., professor  
**Askarov, T.A.** – Qirg’iziston FA akademigi, f.f.d., professor  
**Bazarbayev, J.** – O’zbekiston FA akademigi, f.f.d., professor  
**Bashimov, V.V.** – Turkmaniston milliy ta’lim instituti direktori  
**Werner Bush** – dunyo professorlari uyushmasi exs prezidenti DSc, professor (Germaniya)  
**Mamedzade, I.R.** – Azarbajyon FA Falsafa va sotsiologiya instituti direktori, f.f.d., professor  
**Morevedge, P.** – AQSH dunyo olimlari departamenti raisi, DSc, professor  
**Nisanbayev, A.N.** – Qozog’iston FA akademigi, f.f.d., professor  
**Skarantino, L.M.** – Jahon falsafa jamiyatlari federatsiyasi prezidenti, DSc, professor, (Italiya)  
**Smirnov, A.V.** – Rossiya FA akademigi, Rossiya FA “Falsafa” instituti direktori, Rossiya Falsafa Jamiyati prezidenti, f.f.d., professor (Rossiya)  
**Tursunov, A.** – Tojikiston FA akademigi, f.f.d., professor (Tojikiston)  
**Tsuy Veyxan** – Xitoy ijtimoiy fanlar Akademiyasi vitse-prezidenti, DSc, professor, (Xitoy)  
**Chumakov, A.N.** – Rossiya FA Falsafa instituti professori, f.f.d., (Rossiya)

**Muassislar:**

O’zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi huzuridagi Imom al Buxoriy xalqaro ilmiy – tadqiqot markazi  
O’zbekiston falsafa jamiyat  
OOO tadqiqot

Vazirlar Mahkamasi huzuridagi Oliy attestatsiyasi komissiyasi rayosatining qarori bilan maxsus jurnallar ro’yxatiga kiritildi. 2018-yil 29-dekabrdagi 260/7 sonli bayonnoma

**Ro’yxatga olinganligi haqidagi 1175 sonli guvohnoma O’zbekiston matbuot va axborot agentligi tomonidan 20.02.2018 yilda berilgan.**

**Bosh muharrir:**

**Shermuhamedova, N.A.**, – f.f.d., professor (O’zbekiston)

**Bosh muharrir o’rinbosari:**

**Muhamedova, Z.M.**, – f.f.d., professor (O’zbekiston)

**Mas’ul muharrir:**

**Safayeva, S.X.**, – f.f.n., dotsent (O’zbekiston)

**Tahrir hay’ati:**

**Allahyarova, T.** – f.f.d., professor (Azbayjon)

**Andirjanova, G.A.**, – s.f.d., professor (Qozog’iston)

**Abasov, A. S.** – f.f.d., professor (Azbayjon)

**Ahamer, G.** – PhD, professor (Avstriya)

**B.K. Santosh Kukreja**, – DSc, professor (Hindiston)

**Bodio Todeush**, – s.f.d., professor (Polsha)

**Bilalov, M. I.**, – f.f.d., professor (Rossiya)

**Berna, A.**, – PhD. professor (Turkiya)

**Vefa Tashdelen**, – f.f.d., professor (Turkiya)

**Gabitov, T. X.** – f.f.d., professor (Qozog’iston)

**Guseynov, S.** – f.f.d., professor (Azbayjon)

**Gezalov, A.A.**, – f.f.n., professor (Rossiya)

**Ivatova, L.M.**, – s.f.d., professor (Qozog’iston)

**Kurmangaliyeva, G.K.**, – f.f.d., professor (Qozog’iston)

**Lazarevich, A.A.**, – f.f.n., professor (Belorussiya)

**Muzaffarov, M.** – f.f.d., professor (Tojikiston)

**Morevedge, R.** – DSc, professor (AQSH)

**Naushanbayeva, A., Hakimogli**, – PhD filos., professor (Turkiya)

**Olatunji Felix. O.** – DSc., professor (Nigeriya)

**Paxruddinov, Sh. I.**, – s.f.d., professor (O’zbekiston)

**Sadikova, N.N.**, – f.f.d., professor (Tojikiston)

**Saifnazarov, I.S.**, – f.f.d., professor (O’zbekiston)

**Sergeyev, M.Y.** – PhD, professor (AQSH)

**Telebayev, G.T.**, – f.f.d. professor (Qozog’iston)

**To’rayev, B. O.**, – f.f.d., professor (O’zbekiston)

**Urmanbetova, J.K.**, – f.f.d., professor (Qirg’iziston)

**Chjan Baychun**, – f.f.d., professor (Xitoy)

**Shadmonov, Q.B.**, – f.f.d., professor (O’zbekiston)

**Fishler, A.** – f.f.d., professor (Fransiya)

**Yaxshilikov, J.** – f.f.d., professor (O’zbekiston)

**Yaskevich, Y.S.**, – f.f.d., professor (Belorusiya)

**Ilmiy kotib:**

**Mahkamov, U.** (O’zbekiston)

**Musahhihlar:**

**Xidirov, M.T.**, (O’zbekiston)

**Hamdamova, S.** (O’zbekiston )

**Madiyorova, V.** (O’zbekiston )

**Saurov, R.R.**, (O’zbekiston)

# **Философия и жизнь международный журнал**

## **Falsafa va hayot xalqaro jurnal**

### **Philosophy and life international journal**

#### **Редакционный совет:**

**Абдильдина, Р. Ж.** - академик НАН Казахстана, д.ф.н., профессор  
**Аскаров, Т. А.** - академик АН Киргизистана, д.ф.н., профессор  
**Базарбаев, Ж.** - академик АН Узбекистана, д.ф.н., профессор  
**Башимов, В. В.** - директор национального института образования Туркменистана  
**Вернер Буш.** - экх президент всемирной ассоциации профессоров, доктор философских наук, профессор, (Германия)  
**Мамедзаде, И. Р.** - д.ф.н., профессор, директор института "Философии и социологии" АН Азербайджана  
**Мореведж, П.** - DSc. профессор, руководитель GSP США  
**Нысанбаев, А.Н.** - академик АН Казахстана, д.ф.н., профессор  
**Скарантини, Л. М.** - президент всемирной федерации философских обществ д.ф.н., профессор (Италия)  
**Смирнов, А. В.**- академик АН России, директор института Философии АН России, президент РФО, д.ф.н., профессор (Россия)  
**Турсунов, А.** - академик АН Таджикистана, д.ф.н., профессор  
**Цуй Вэйхан** - Вице-президент Института философии КАОН, д.ф.н., профессор (Китай)  
**Чумаков, А. Н.** - проф. РАН, д.ф.н., (Россия)

#### **Учредители:**

Международный научно исследовательский Центр Имама аль Бухари при Кабинете Министров Республики Узбекистан  
Философское общество Узбекистана  
ООО tadqiqot

Решением Высшей аттестационной комиссии при Кабинете Министров Республики Узбекистан введен в список специальных журналов. 2018 год 29 декабря протокол №260/7

**Регистрационное свидетельство №1175 выдано 27.02.2018 агентством по печати и информации Узбекистана**

**Philosophy and life / №1 (8) 2020**

#### **Главный редактор:**

Шермухамедова, Н. А. - д.ф.н., профессор (Узбекистан)

#### **Заместитель редактора:**

Мухамедова, З. М. - д.ф.н., профессор (Узбекистан)

#### **Ответственный редактор:**

Сафаева, С. Х. - к.ф.н., доцент (Узбекистан)

#### **Редакционная коллегия:**

Аллахярова, Т. - д.ф.н., профессор (Азербайджан)  
Андижанова, Г. А. - д.п.н., профессор (Казахстан)  
Абасов, А. - д.ф.н., профессор (Азербайджан)  
Ахамер, Г. - PhD, профессор (Австрия)  
**В.К.Сантош Кукреджа.** - PhD, профессор (Индия)  
**Бодио Тодеуш.** - д.п.н., профессор (Польша)  
**Билалов, М. И.** - д.ф.н., профессор (Россия)  
**Берна, А.** - PhD.- профессор (Турция)  
**Вефа Тащелен** - д.ф.н., профессор (Турция)  
**Габитов, Т. Х.** - д.ф.н., профессор (Казахстан)  
**Гусейнов, С.** -д.ф.н., профессор (Азербайджан)  
**Гезалов,А.А.** - к.ф.н., профессор (Россия)  
**Иватова, Л. М.** - д.п.н., профессор, (Казахстан)  
**Курмангалиева, Г. К.** - д.ф.н.,профессор (Казахстан)  
**Лазаревич, А. А.** - к.ф.н., профессор (Беларусия)  
**Музаффаров, М.** - д.ф.н., профессор (Таджикистан)  
**Мореведж, Р.** – DSc, профессор (США)  
**Наушабаева, А., Хекимоглы** - PhD, профессор (Турция)  
**Олатунжи Феликс О.** – DSc, профессор (Нигерия)  
**Пахруддинов, Ш.И.** - д.п.н., профессор (Узбекистан)  
**Садикова, Н. Н.** - д.ф.н., профессор (Таджикистан)  
**Саифизаров, И.С.** - д.ф.н., профессор (Узбекистан)  
**Сергеев, М. Ю.** - PhD, профессор (США)  
**Телебаев, Г.Т.** - д.ф.н., профессор (Казахстан)  
**Тураев, Б.О.** - д.ф.н., профессор (Узбекистан)  
**Урманбетова, Ж. К.** - д.ф.н., профессор (Киргизистан)  
**Чжан Байчун** - д.ф.н., профессор (Китай)  
**Шадманов, К.Б.** - д.ф.н. профессор (Узбекистан)  
**Фишлер, А.** - д.ф.н., профессор (Франция)  
**Яхшиликов, Ж.** - д.ф.н., профессор (Узбекистан)  
**Яскевич, Я.С.** - д.ф.н., профессор (Беларуссия)

#### **Ученый секретарь:**

**Махкамов, У.** (Узбекистан)

#### **Корректоры:**

**Хидиров, М.Т.** (Узбекистан)

**Хамдамова, С.** (Узбекистан)

**Мадиярова, В.** (Узбекистан)

**Сауров, Р.Р.** (Узбекистан)

# **Philosophy and life international journal Falsafa va hayot xalqaro jurnal Философия и жизнь международный журнал**

## **Editorial Council:**

**Abdildina, R.J.** - academician AS of Kazakhstan, doctor of philos. sciences, professor  
**Askarov, T.A.** - academician AS of Kyrgyzstan, doctor of philos. sciences, professor;  
**Bazarbaev, J.** - academician AS of Uzbekistan, doctor of philos. sciences, professor  
**Bashimov B.B.** - director of national Institute of education of Turkmenistan  
**Werner Bush** - President of the World Association of Professors, DSc, professor (Germany)  
**Mamedzade, I.R.** - director of Institute "Philosophy and sociology" AS of Azerbaijan doctor of philosophical sciences, professor  
**Morewedge, P.** - Editor-in-Chief; IGDE, DSc, professor USA  
**Nysanbaev, A.N.** - academician AS of Kazakhstan, doctor of philos. sciences, professor  
**Scarantino, L.M.** - President of International Federation of Philosophical societies, professor of philosophy and politics of culture, (Italy)  
**Smirnov, A.V.** - Academician of the Academy of Sciences of Russia, Director of the Institute of Philosophy of the Academy of Sciences of Russia, President RFS, doctor of philos. sciences, professor (Russia)  
**Tursunov, A.** - academician of the ASc of Tajikistan, doctor of philos. sciences, professor  
**Tsui Weihan** - vice-President of the Institute of Philosophy CAAS, doctor of philos. sciences, professor (China)  
**Chumakov, A.N.** - professor RAN doctor of philos. sciences (Russia)

## **Founders:**

Imam al Bukhari International Research Center under the Cabinet of Ministers of the Republic of Uzbekistan Philosophical Society of Uzbekistan OOO tadqiqot

By the decision of the Higher Attestation Commission under the Cabinet of Ministers of the Republic of Uzbekistan entered into the list of special journals. 2018 December 29 Protocol №260 / 7

**The registration certificate № 1175 was issued on February 27, 2018 by the Uzbek Agency for Press and Information**

## **Editor-in-Chief**

**Shermukhamedova, N.A.** - doctor of philos. sciences, professor (Uzbekistan)

## **Deputy Editor:**

**Mukhamedova, Z.M.** - doctor of philos. sciences, professor (Uzbekistan)

## **Managing editor:**

Safaeva, S.Kh. - Ph.D. philos., (Uzbekistan)

## **Editorial team:**

**Allahyarova, T.** - doctor of philos. sciences, professor (Azerbaijan)

**Andirjanova, G.A.** - doctor of political sciences, professor (Kazakhstan)

**Abasob, A. S.** - doctor of philos. sciences, professor (Azerbaijan)

**Ahamer G.** - PhD, professor (Austria)

**B.K. Santosh Kukredja,** - PhD., professor (India)

**Bodio Todeus.** - doctor of political sciences, professor (Poland)

**Bilalov, M.I.** - doctor of philos. sciences, professor (Russia)

**Berna, A.** - PhD., professor (Turkey)

**Vefa Tashdelen.** - doctor of philos. sciences, professor (Turkey)

**Gabitov, T.H.** - doctor of philos. sciences, professor (Kazakhstan)

**Guseynov, S.** - doctor of philos. sciences, professor (Azerbaijan)

**Gezalov, A.A.** - PhD. of philos., associate professor (Russia)

**Ivatova, L.M.** - doctor of political sciences., professor (Kazakhstan)

**Kurmangaliyeva, G.K.** - doctor of philos., professor (Kazakhstan)

**Lazarevich, A. A.** - PhD philos., professor (Belarus)

**Morewedge, R.** - doctor of philology, professor (USA)

**Muzaffarov, M.** - doctor of philos sciences, professor (Tajikistan)

**Naushanbaeva, A., Hakimogli.** - PhD. philos., professor (Turkey)

**Olatunji, Felix.O.** - DSc, professor (Nigeriya)

**Pakhruddinov, Sh.I.** - doctor of political sciences, professor (Uzbekistan)

**Sadikova, N.N.** - doctor of philos. sciences, professor (Tajikistan)

**Saifnazarov, I.S.** - doctor of philos. sciences, professor (Uzbekistan)

**Sergeev, M.Yu.** - PhD, philos., professor (USA)

**Telebaev, G.T.** - doctor of philos. sciences, professor (Kazakhstan)

**Turaev, B.O.** - doctor of philos. sciences, professor (Uzbekistan)

**Urmanbetova, J.K.** - doctor of philos. sciences, professor (Kyrgyzstan)

**Zhang Baichun** - doctor of philos. sciences, professor (China)

**Shadmanov, Q.** - doctor of philos. sciences, professor (Uzbekistan)

**Fischler, A.** - doctor of philos. sciences, professor (France)

**Yaxshilikov, J.** - doctor of philos. sciences, professor (Uzbekistan)

**Yaskevich, Ya.S.** - doctor of philos. sciences, professor (Belarus)

## **Scientific Secretary:**

**Mahkhamov, U.** (Uzbekistan)

## **Correctors:**

**Khidirov, M.T.** (Uzbekistan)

**Hamdamova, S.** (Uzbekistan)

**Madiyorova, V.** (Uzbekistan)

**Saurov, R.R.** (Uzbekistan)

## MUNDARIJA

### SIYOSAT VA JAMIYAT FALSAFASI

#### 1. Mamatkulov Sanjar Toshpulatovich

Dunyoqarash va hayotiy pozitsiya: strukturaviy tahlil.....9-28

#### 2. Saurov Ravshonbek Ruslanbek o'g'li

Korrupsiya: sabablari, ta'siri va unga qarshi kurash metodlari.....29-42

### TA'LIM VA FAN FALSAFASI

#### 3. Sharipov Abduhakimjon Ziyoitdinovich

Globallashuv sharoitida sotsial stratifikatsion jarayonlar va ijtimoiy hamkorlik.....43-55

#### 4. Umirzakova Nargiza Akmalovna

Bioetikaning paydo bo'lishi, fan sifatida shakillanishi va o'r ganadigan muammolarining falsafiy-metodologik tahlili.....56-69

### TARIX FALSAFASI VA FALSAFA TARIXI

#### 5. Bilalov Mustafo Isoyevich

Islom falsafasining paradigma strategiyalariga turkiy hissasi.....70-92

#### 6. Dablo Lyubov Grigoryevna

D. D. Ovsyaniko-Kulikovskiyning "ijod" kontseptsiyasini shakllantirishdagi roli.....93-105

#### 7. Umarova Ro'zigul Sheraliyevna

O'rta asr musulmon xalqlari falsafasida naturfalsafiy g'oyalarning ilgari surilishi va asoslanishi.....106-120

### DUNYO MADANIYATI VA DINIY AN'ANALAR

#### 8. Mirzarahimov Baxtiyor Xoshimovich

Turizmning gnoseologik vazifalari va ularning falsafiy tahlili.....121-130

#### 9. Orexova Svetlana

Filateliya kontekstidagi pravoslav ikonografiyasining semiotikasi .....131-153

## СОДЕРЖАНИЕ

### ФИЛОСОФИЯ ПОЛИТИКИ И ОБЩЕСТВА

#### 1. Маматкулов Санжар Тошпулатович

Мировоззрение и жизненная позиция: структурный анализ.....9-28

#### 2. Сауров Равшонбек Русланбек оглы

Коррупция: причины, влияния и методы борьбы.....29-42

### ФИЛОСОФИЯ ОБРАЗОВАНИЯ И НАУКИ

#### 3. Шарипов Абдухакимжон Зиёйтдинович

Социальные стратификационные процессы и социальное партнерство в глобализации.....43-55

#### 4. Умирзакова Наргиза Акмаловна

Причины возникновения и развития биоэтики как науки и философско-методологический анализ круга её проблем.....56-69

### ФИЛОСОФИЯ ИСТОРИИ И ИСТОРИЯ ФИЛОСОФИИ

#### 5. Билалов Мустафа Исаевич

Тюркский вклад в парадигмальные стратегии исламской философии.....70-92

#### 6. Дабло Любовь Григорьевна

Роль Д. Овсянико-Куликовского в становлении определения понятия "творчество".....93-105

#### 7. Умарова Розигуль Шералиевна

Продвижение и обоснование натурфилософских идей в философии средневековых мусульманских народов.....106-120

### МИРОВАЯ КУЛЬТУРА И РЕЛИГИОЗНЫЕ ТРАДИЦИИ

#### 8. Мирзарахимов Бахтиёр Хошимович

Гносеологические функции туризма и их философский анализ.....121-130

#### 9. Орехова Светлана

Семиотика православной иконописи в контексте Филателии.....131-153

## **CONTENTS**

### **PHILOSOPHY OF POLITICS AND SOCIETY**

#### **1. Mamatkulov Sanjar Toshpulatovich**

Worldview and life position: structural analysis.....9-28

#### **2. Saurov Ravshonbek Ruslanbek ugli**

Corruption: causes, influences and methods of struggle.....29-42

### **PHILOSOPHY OF EDUCATION AND SCIENCE**

#### **3. Sharipov Abdukhakimjon Ziyoitdinovich**

Social stratification processes and social cooperation during globalization.....43-55

#### **4. Umirzakova Nargiza Akmalovna**

The causes of the emergence and development of bioethics as a science and philosophical and methodological analysis of the range of its problems.....56-69

### **PHILOSOPHY OF HISTORY AND HISTORY OF PHILOSOPHY**

#### **5. Bilalov Mustafa Isaevich**

The Turkic contribution to the paradigmatic strategy of Islamic philosophy.....70-92

#### **6. Dabio Liubov Grigoryevna**

Role of D. Ovsianyko-Kulykovskyi in the formation of the definition of the concept "creativity".....93-105

#### **7. Umarova Rozigul Sheralievna**

Promotion and justification of natural philosophical ideas in the philosophy of medieval Muslim peoples.....106-120

### **WORLD CULTURE AND RELIGIOUS TRADITIONS**

#### **8. Mirzarakhimov Baxtiyor Khoshimovich**

Gnoseological functions of tourism and their philosophical analysis.....121-130

#### **9. Orekhova Svetlana**

The semiotics of orthodox iconography in the context of Philately.....131-153

**SIYOSAT VA JAMIYAT FALSAFASI/  
ФИЛОСОФИЯ ПОЛИТИКИ И ОБЩЕСТВА /  
PHILOSOPHY OF POLITICS AND SOCIETY**



**УДК: 140.8+141.201  
http://dx.doi.org/10.26739/2181-9505-2020-8-1**

**Mamatkulov Sanjar Toshpulatovich**

Jizzax davlat pedagogika instituti tayanch doktoranti.

(O'zbekiston, Jizzax)

E-mail: 1984sanjar@mail.ru

**DUNYOQARASH VA HAYOTIY POZITSIYA:  
STRUKTURAVIY TAHLIL**

**Annotatsiya.** Dunyoqarash va unga bog'liq masalalar turli fanlarning doimiy diqqat-e'tiborida bo'lib kelgan. Inson, shaxs, alohida guruhlar va umuman jamiyat qaysi bir tadqiqotning ob'ektiga aylansa, o'z-o'zidan dunyoqarash masalasi ham tilga olinadi. Fanlararo tushuncha hisoblangan dunyoqarash falsafa, psixologiya, sotsiologiya, kulturologiya, antropologiya, pedagogika va boshqa qator fanlar doirasida turli nuqtai-nazardan o'r ganiladi. Masalan, psixologiyada dunyoqarash ruhiy hodisa, sotsiologiyada xulq-atvor, kulturologiyada madaniy hodisa, antropologiyada etno-madaniy qiyofa, pedagogikada tarbiya ob'ekti sifatida tadqiq etiladi. Biroq, dunyoqarashning tub mohiyati, strukturasi va funksional jihatlari falsafa doirasidagina to'la va yaxlit holda qamrab olinadi. Falsafagini o'zining universalistik xususiyati bilan ushbu fenomenning ontologik, gnoseologik, aksiologik, praksiologik va boshqa jihatlarini asoslab, boshqa fanlar uchun ushbu masalada konseptual-metodologik ko'rsatma berishi mumkin. Shunday bo'lsada, dunyoqarash masalasi falsafaning boshqa universal muammolari qatorida hali hanuz o'zining tugal yechimini topmagan muammolaridan biri bo'lib kelmoqda. Gap shundaki, dunyoqarash nihoyatda murakkab va serqirra hodisa. Uni tushuncha holatiga keltirish, strukturaviy va funksional jihatdan tahlil qilish borasida yakdil bir xulosaga kelish juda mushkul. Shu boisdan ham biz ushbu maqolada dunyoqarashga oid ba'zi tadqiqotlarga murojaat qilib, uning strukturasini va komponentlarini aniqlashga urinib ko'ramiz. Bunda biz shu vaqtgacha mavjud bo'lgan falsafiy qarashlarni tanqidiy tahlil elagidan o'tkazib,

ba'zi bir bo'shliqlar va noaniqliklarga e'tibor qaratamiz. Shuningdek, dunyoqarashni shaxs bilan, uning hayotiy pozitsiyasi bilan aloqadorligini ko'rib chiqamiz.

**Kalit so'zlar:** dunyoqarash, struktura, tarkib, tizim, komponent, bilim, prinsip, e'tiqod, qadriyat, baho.

**Kalit so'zlar (2):** hayotiy pozitsiya, individual ong, tarixiy voqelik, ijtimoiy ong, hissiyot va ruhiyat, intellektual asos, konseptual nazar, dunyoqarashning strukturasi, nazariy konstruksiya.

## **KIRISH**

Borliqdagi har bir ob'ekt o'ziga hos strukturaga ega. Xoh u moddiy ob'ekt bo'lsin, xoh ma'naviy hodisa, albatta muayyan tarzda strukturalanadi. Ob'ektning xususiyatlari va boshqa ob'ektlar bilan munosabat tarzi, avvalo uning strukturaviy jihatdan qanday tashkil qilinganligiga bog'liqdir. Bu biz tadqiq etmoqchi bo'lgan dunyoqarashga ham tegishli. Dunyoqarashning tarkibi va strukturasini ko'rib chiqishdan avval, tarkib va struktura o'zi nima ekanligiga e'tibor qaratamiz. Tarkib – muayyan ob'ektni tashkil etuvchi komponentlarning oddiy to'plami, struktura – ushbu komponentlar o'rtaida yuzaga keladigan aloqalardir. Strukturaning eng asosli ta'rifi ijtimoiy falsafa sohasidagi taniqli mutaxassis V.Y. Kemerovga tegishli. U shunday ta'rifni keltiradi: "Struktura – o'zgaruvchan sharoitlarda takror ishlab chiqarishni ta'minlaydigan ob'ektning barqaror birikmalar to'plami... Xolistik tushunishda struktura tizim bilan tenglashtiriladi. Bu holatda tizim elementlar orasidagi aloqa-bog'lanishlar sifatida tushuniladi. Ikkinci ta'rif struktura tushunchasidan tizim tushunchasini farqlaydi. Shu bilan birga, struktura ob'ektning ichki tashkil etilishi va tartibliliği sifatida tushuniladi" [Kemerova, B. Y. & Kerimova, T. X. 2003: b.427].

## **MATERIALLAR VA METODLAR**

"Dunyoqarash" tushunchasining falsafiy mazmunini ochib berish uzoq va chuqur an'anaga ega. Ba'zi olimlar tomonidan "dunyoqarash" tushunchasi "dunyonid idrok etish usullari bilan o'rnatishgan aqliy linzalar" [Olsen, M.E. & Lodwick, D. G. & Dunlap, R. E. 1992: b.4] sifatida tushuntiriladi. "Dunyoqarash" atamasi nemischa "Weltanschauung" so'zidan kelib chiqqan bo'lib, dunyoga bo'lgan qarashni yoki shaxsning hayotga, ijtimoiy dunyoga va institatlarga yaxlit qarashini anglatadi [Wolman, B. B. 1973: b.406]. Bu kishilar,

munosabatlar, tabiat, vaqt va faoliyat haqidagi e'tiqodlar, qadriyatlar va taxminlarni anglatadi [Ibrahim, F. A. & Owen, S. V. 1994: b.201].

Dunyoqarash tushunchasi tarixan turli shakl va ma'nolarda ifodalangan bo'lib, uning mazmuni haqida yakdil bir xulosa mavjud emas. Xususan, K.Yung uni "hayot falsafasi" [Jung, C. G. 1954: b.111-125], A.Maslou "dunyoga nazar solish" [Maslow, A. H. 1970: b.39], S.Pepper "dunyo gi potezalari" [Pepper, S. C. 1970: b.128], J.Frank "taxminiy dunyolar" [Frank, J. D. 1973: b.57], J.Kottler va R.Xazler "o'z-o'zini va dunyoni qurish tizimi" [Kottler, J. A. & Hazler, R. J. 2001: b.355-369], F.Klakxon "madaniy orientatsiyalar" [Kluckhohn, F. R. 1950: b.376-393] shaklida ifodalab, turli nuqtai nazardan talqin qilganlar.

Ba'zi tadqiqotchilarining fikriga ko'ra, dunyoqarash atamasi vaqt o'tishi bilan kishilarning dunyoni, madaniyatni, dinni yoki ma'naviyatni qanday anglashini tushuntirish uchun qo'llanilgan va boshqa madaniyatlarning xatti-harakatlari va munosabatlarini tasvirlash uchun ishlataligan. Shuningdek, u nazariyotchi yoki tadqiqotchining nuqtai nazarini hisobga olgan holda turli kontekstlarda ishlatalishi mumkin [Ibrahim, F. A., Roysircar-Sodowsky, G., & Ohnishi, H. 2001: pp.425-456].

Dunyoqarashga nisbatan yondashuvlarning bunday xilma-xilligini tabiiy qabul qilmoq kerak. Zero insonning ma'naviy-ruhiy dunyosi, uning borliq bilan munosabati murakkab jarayonlar birligidan iborat bo'lib, ularni muayyan bir qolipgasolish nihoyatdamushkuldir. Shunday bo'lsada, dunyoqarashni yaxlit tarzda tadqiq etish va uning strukturasini aniqlashga bo'lgan urinishlar o'tgan asrning 70-yillaridan boshlab faylasuf olimlar oldidagi jiddiy ishga aylandi. Dunyoqarashni 1970-1980-yillarda fundamental tarzda tadqiq etgan olimlar sirasiga R. A. Arsishevskiy, I. V. Vostrikov, M.G. Ashmanis, A.S. Kravslarni kiritish mumkin.

## MUHOKAMA VA NATIJALAR

R. A. Arsishevskiy o'z zamonoshlarining tajribasini umumlashtirib shunday yozadi: "70-yillar nashrlarida dunyoqarash tushunchasini yanada aniqlashtirish jarayonida uni falsafa, mafkura yoki butun ijtimoiy ong bilan aniqlashga qaratilgan urinishlar tanqidiy tahlil qilinadi. Natijada, dunyoqarashni ijtimoiy ongning shakl yoki sohalaridan biriga qadar qisqartirish mumkin bo'Imagan nuqtai nazar ishlab chiqiladi. Unga ko'ra, dunyoqarash ijtimoiy ong shakllari va sohalarining barchasini emas, faqat ularning alohida elementlarini birlashtirgan

maxsus ma'naviy hodisani ifodalaydi” [Arsishevskiy, R. A. 1986: b.48]. R. A. Arsishevskiy dunyoqarash va ongning farqli jihatlariga to'xtalib, dunyoqarashning ongga nisbatan xususiy hodisa ekanligini ta'kidlaydi. Ong masalasiga chuqur to'xtalib o'tirmasdan (zero bu alohida tadqiq etishga muhtoj masala) shuni aytishimiz mumkinki, dunyoqarash ongning nisbatan yaxlitlangan, o'zaro muvofiqlashgan, barqaror qismi. Zero, ong inson ma'naviy-ruhiy olamining dunyoqarashdan tashqarida turuvchi boshqa elementlarini ham qamrab olishi jihatidan dunyoqarashga nisbatan kengroq hodisa.

I. V. Vostrikovning fikrlariga murojaat qilamiz. U shunday yozadi: “dunyoqarash – dunyo, tabiat va jamiyat haqida, ularning bir butunligi, inson va uning dunyodagi o'rni, mavjud bo'lishning ma'nosi to'g'risidagi umumiy fikrlar majmui. Uning o'ziga xosligi esa ikki funksiyada namoyon bo'ladi: birinchidan, u shaxsning o'z-o'zini anglash shakli, ikkinchidan, dunyoni ma'naviy-amaliy o'zlashtirish usulidir. Dunyoqarash “dunyo” va “inson” tushunchalarining birikmasi – dunyoning inson bilan munosabati va insonning dunyoda o'z-o'zini aniqlashi sifatida e'tirof etiladi” [Vostrikov, I. V. 1987: b.4]. Yoki M.G.Ashmanis ta'rifiiga murojaat qilamiz. U shunday yozadi: “Dunyoqarash – dunyo va insonning o'zaro aloqadorligi va munosabati, insonning tabiat, jamiyat, ularning qonunlari to'g'risidagi, o'zi va dunyodagi o'rni haqidagi umumiy qarashlar tizimidir. Individual ong darajasida dunyoqarash asosiy e'tiqodlar va ular bilan aloqador bilimlar, qarashlar va tasavvurlar majmui bo'lib, unda tabiiy va konkret tarixiy voqelikning aks etishi insonning shaxsiy hayotiy tajribasi bilan sintezlanadi va shu tufayli shaxsning ijtimoiy pozitsiyasi, fikrlash tarzi va xulq-atvor yo'nalishini belgilab beradi” [Ashmanis, M. G. 1984: b.27].

P. N. Fedoseev tomonidan berilgan dunyoqarashning ta'rifi yuqorida ko'rsatilgan M. G. Ashmanisning ta'rifidan farq qilmaydi. Ammo Fedoseev bu ob'ektning o'zgaruvchanligi haqida gapiradi. U dunyoqarashni boshqa har qanday ong shakli kabi voqelikning o'z davri ruhidagi in'ikosidir, deb ta'kidlaydi. Unga ko'ra, haqiqat necha marta o'zgarsa, dunyoqarash ham shuncha o'zgaradi. “Dunyoqarash, uning tuzilishi va mazmuni doimiy, statik, o'zgarmas narsa emas. Tarixiy taraqqiyotning turli bosqichlarida dunyoqarash tizimida alohida komponentlarning o'rni o'zgarib, uning mazmuni vaqt o'tishi bilan yangilanib, boyib bordi. Butun dunyo haqidagi muayyan g'oyalar to'plamida qaysi qarashlar ustunligiga qarab, shuningdek, dunyoqarash strukturasiga tegishli qarashlar va g'oyalarni kiritish usuliga qarab,

turli jamiyat va sinflarda dunyoqarashning har xil tipi ustunlik qiladi” [Fedoseev, P. N. 1979: b.5]. Ammo keyin Fedoseev, turli xil dunyoqarash tiplari turli strukturaga ega ekanligini ta’kidlab, kutilmaganda ma’lum bir umumiy strukturaga olib keladi. Unga ko’ra, birinchi va eng muhim o’rinda dastlab ichki qadriyatlar va o’rnatma(ustanovka)lar, ikkinchi – tasavvurlar va g’oyalar, uchinchi – e’tiqod (birinchi va ikkinchining sintezi) turadi. Keyingi bosqichlarda bu sxemaga san’at, axloq, falsafa va fan qo’shiladi. Fedoseev kommunistik dunyoqarashni yangiligi va jozibadorligi jihatidan dunyoqarashning eng yuqori tipi deb hisoblaydi.

A.S.Kraves Fedoseevning konsepsiyasini hisobga olib, birinchi navbatda dunyoqarash tizimi haqidagi tezisni tanqid qiladi. “Shu bilan birga, ko’pchilik tadqiqotchilar dunyoqarash umumlashgan qarashlar tizimi degan pozitsiya bilan kelisha olmaydilar, chunki tizimlilik belgisi dunyoqarashning faqat ancha rivojlangan nazariy shaklini tavsiflaydi” [Kraves, A. S. 1986: b.27], ya’ni dunyoqarashning dastlabki shakllari butun bir tizim bo’Imasligi mumkin. Kraves ham dunyoqarashni faqat uning turli jihatlarigina strukturalashishi mumkin, deb hisoblaydi. Statik struktura ob’ekt qismlaridan faqat bittasini ko’rsatadi va muqarrar ravishda bir tomonlama bo’ladi. Kravesning yana bir yangiligi – dunyoqarashning o’z tashuvchisidan (sub’ekti) ajralmaslidir. “Nihoyat, dunyoqarash uning o’ziga xos tashuvchisidan holi tarzda umuman mavjud emasligini yodda tutish lozim. Ayni bir tarixiy davrda, muayyan ijtimoiy-iqtisodiy sharoitda ham turli shaxslar, ijtimoiy guruuhlar va sinflar dunyoqarashining mazmuni va shaklida tafovutlar mavjud. Ma’lum bir tashuvchiga bog’liqlik dunyoqarashni intersub’ektiv, shaxssiz va umumahamiyatli bo’lgan fandan ajratib turadi” [Kraves, A. S. 1986: b.30]. Lekin bu, umumlashgan shakldagi dunyoqarashni ajratib bo’lmaydi, degani emas. “Biroq, turli xil dunyoqarashlar o’rtasidagi chuqur sifatiy farqlarga qaramasdan, ularning har biri uchta asosiy savolga javob berishga intildi:

- 1) inson yashaydigan va harakat qiladigan dunyo nima?;
- 2) nima uchun yashash kerak?;
- 3) qanday yashamoq kerak?” [Kraves, A. S. 1986: b.35].

Shuningdek, dunyoqarashning qaysi tipiga mansub bo’lishidan qat’iy nazar, uning ijtimoiy ong tizimidagi roli o’zgarishsiz qoladi. “Aftidan, dunyoqarashning ijtimoiy ong tizimidagi maqomini ochib berishning eng to’g’ri yo’li substansiya tushunchasi ortiga yashiringan. Substansiya – har qanday mavjudlikning mohiyati, asosi... Xuddi shunday, dunyoqarashga ijtimoiy ongning aniq shaklu-shamoyili siftida mavjud

bo‘lgan maxsus ma’naviy substansiya sifatida qaralishi mumkin... Dunyoqarashni haqli ravishda o‘z davri ijtimoiy ongining ma’naviy kvintessensiyasi deb aytishimiz mumkin” [Kraves, A. S. 1986: b.45]. Kraves dunyoqarashni ma’naviy va amaliy ob’ekt deb biladi va u gnoseologik va qadriyat komponentlarini, shuningdek ikki: oddiy va nazariy (mafcura) darajani o‘z ichiga oladi, deb hisoblaydi. Aynan mana shu yerda fiklарimizning avval boshida aytib o‘tilgan paradoksga duch kelamiz. Ya’ni, A.S Kraves de yure dunyoqarashning strukturasi haqida gapiradi, lekin de fakt faqat uning tarkibini tavsiflaydi.

XX asrning oxiri va XXI asr boshlarida dunyoqarash borasidagi tadqiqotlar o‘z ahamiyatini yo‘qotdi va faqat universitet talabalari uchun yozilgan darsliklardagina tilga olindi. Bu borada rossiyalik olimlardan: V.V. Trushkov, N.F. Buchilo, A. N.Chumakov A.A. Radugin va V. G.Gorbachyov; o‘zbekistonlik olimlardan: N.A.Shermuhammedova tomonidan yozilgan darslik va o‘quv qo‘llanmalarda keltirilgan dunyoqarashga oid fikrlarni ko‘rib chiqamiz.

Bu tadqiqotchilarning barchasi dunyoqarashning mohiyatini bir xil tarzda aniqlaydi. Biz uchun V. G. Gorbachyov tomonidan berilgan ta’rifni keltirish kifoya. “Muxtasar qilib aytganda, dunyoqarash, bu – bilish va amaliyot sub’ekti (individual, ijtimoiy guruh, umuman jamiyat) da shakllangan dunyo tasviridir. Bu insonning hayotiy pozitsiyasi va atrofidagi dunyoda mavjud bo‘lishi uchun zaruriy asosdir. Albatta, dunyoqarash insonning o‘zi va atrofidagi dunyo haqidagi bilim va g‘oyalari bilangina cheklanib qolmaydi. U nafaqat dunyoning tasviri, balki uning dunyoga munosabati asosida shakllangan tamoyillar hamdir: qiziqish yoki befarqlik, yaxshilik yoki yomonlik va h.k. Insonning dunyoqarashi uning ma’naviy-amaliy faoliyatjisiz, fan-texnika taraqqiyoti va madaniy muhit ta’siridan holi tarzda hosil bo‘lmaydi” [Gorbachyov, V. G. 2002: b.6].

Ba’zi istisnolarni hisobga olmaganda, deyarli boshqa barcha mualliflar dunyoqarash fenomenini bir xil tarzda belgilaydilar. Afsuski, dunyoqarash strukturasini tushunishda tadqiqotchilar orasida bunday yakdillik yo‘q. V.G.Gorbachyovning fikriga ko‘ra, dunyoqarash elementlari bilim, e’tiqod, ideallar, tamoyillar va ma’naviy qadriyatlardir. Shuningdek, tadqiqotchi dunyoqarashning ikki funksiyasini ham belgilaydi: bilish (kognitiv) va mo’ljal olish (orientatsiya).

N.F.Buchilo, A.N.Chumakov, N.S.Shermuhammedova dunyoqarashning uch turini ajratib ko‘rsatadi: dunyonи his etish, dunyonи idrok qilish vadunyonи tushunish. Bu tiplar dunyoqarashning uch asosiy shakliga, ya’ni mif, din va falsafaga mos keladi. N.F.Buchilo

va A.N.Chumakovlar dunyoqarashning funksiyalari va strukturasini quyidagicha ifodalaydi: “Shunday qilib dunyoqarashda inson tomonidan amalga oshiriladigan quyidagi asosiy funksiyalar umumlashtirilgan shaklda taqdim etiladi: bilish (kognitiv), qadriyat va xulq-atvor (N.S.Shermuhammedova ham bilish, qadriyatlarga munosabat va xulq-atvorni belgilash funksiyalarini keltiradi [Shermuxammedova, N.A. 2012: b.9]). Demak, muammolarga, savollarga tanlangan tarzda javob beradigan har bir insonning dunyoqarashi har doim shaxsiy o‘ziga hosligi bilan ajralib turadi va shu boisdan ham boshqa kishilarning dunyoqarashiga o‘xshamaydi. Bu har doim noyob va betakrordir, chunki dunyoqarashda intellekt bilan birga, hissiyot va ruhiyat uzviy bog‘liq bo‘lib, ular har bir inson uchun mutlaqo o‘ziga xos, individual xususiyatlar sifatida ishlaydi. Intellekt, hissiyot va ruhiyat iroda bilan uyg‘unlikda kishilar tomonidan faol qabul qilinadigan, ular ongining butun omboriga, hayotiy intilishlariga mos keladigan qarashlar – e’tiqodlarni yaratadi. Har qanday dunyoqarashning yana bir muhim elementi shubha bo‘lib, uni dogmatizmdan himoya qiladi” [Buchilo, N. F. & Chumakov, A. N. 2003: b.11-12]. Aks holda, emotsional, ruhiy va intellektual asoslar iroda orqali va har bir shaxsning o‘ziga hos jihatlarini hisobga olgan holda e’tiqod va shubhalarni yaratadi.

V. V. Trushkovning fikricha, dunyoqarash bir vaqtning o‘zida ikkita strukturaga va ikki turga ega: “Dunyoqarashning turlari: individual (shaxs) va ijtimoiy dunyoqarash (mafcura, ijtimoiy ideal, ijtimoiy pozitsiya). Dunyoqarashning psixologik va gnoseologik strukturasini farqlash lozim. Psixologik struktura: bilimlar, qarashlar tizimi, qadriyatiy baholar tizimi, hayotiy pozitsiyani tanlashda insonning dunyo bilan munosabati; bilim, his-tuyg‘u, tanlangan pozitsiyaga ishonch, burchni va axloq mezonini anglashni birlashtiruvchi e’tiqod; ideallardir. Dunyoqarashning gnoseologik strukturasini tarkibini tabiatshunoslik, fizik, biologik, matematik, sotsiologik, estetik, iqtisodiy va boshqa bilimlar tashkil etadi. Dunyoqarashning shakllanishida mazkur bilimlar asosiy rolni o‘ynaydi. Ammo dunyoqarash mexanik bilimlar to‘plami emas. Bu dunyo haqidagi qarashlarning yaxlit tizimi, bu konseptual nazar, dunyoda sodir bo‘ladigan barcha narsa idrok etiladigan prizmadir. Dunyoqarashning nazariy asoslari falsafadir” [Trushkova, V. V. 2004: b.12].

V.V.Trushkova bilimlarni har ikki strukturaga ham kiritadi. U dunyoqarash uning gnoseologik strukturasini tashkil etuvchi bilimlar asosida shakllanadi, demoqchi. Keyin psixologik struktura vujudga keladi, chunki ideallar va qadriyatlар, uning fikricha, bilimga asoslanadi.

Dunyo haqidagi tasavvur ana shu dunyoqarash asosida vujudga kelgan falsafaga asoslanadi. Gi poteza qiziqarli, lekin xatolik boshidanoq ko'rinib turibdi. Biz bilim dunyoqarashning asosi ekanligini inkor etmaymiz, biroq barcha bilimlar falsafiy konsepsiyaiga aylanmaydi. Yaxlit dunyoqarashga ega, ammo falsafa haqida zarracha tasavvurga ega bo'Imagan kishilar juda ko'p. Afsuski, har bir insonning dunyoqarashi bor, biroq falsafiylari juda oz. Ba'zi mualliflar dunyoqarashning alohida, falsafiy turiga urg'u beradilar, lekin u keng ijtimoiy qatlamlarda deyarli tarqalmagan.

Dunyoqarashning strukturasini tasavvur qilish va uning tarkibiy qismlari ierarxiyasini aniqlash uchun awalo ushbu komponentlarning o'zini aniqlab olish kerak. Agar bilim deganda biz asosan ob'ektiv ma'lumotlarni nazarda tutsak, unda e'tiqodlar, normalar, ideallar va qadriyatlar nima? Yuqorida aytib o'tilgan mualliflarning asarlaridan ta'riflarni izlashimiz mumkin. "E'tiqod – kishilar tomonidan faol qabul qilinadigan, ularning ongi, hayotiy intilishlarining butun ko'lamiga mos keladigan qarashlardir" [Buchilo, N. F. & Chumakov, A. N. 2003: b.12].

"Ideal – insonning eng yuksak intilishlari, maqsadlari va harakat dasturlarini ifoda etuvchi mukammallik va shuning uchun orzu qilinadigan kelajakning ruhiy qiyofasidir" [Gorbachyov, V. G. 2002: b.7]. "Prinsiplar – hayotda amal qilinishi lozim bo'lgan g'oyalar va qoidalardir" [Gorbachyov, V. G. 2002: b.8]. "Qadriyat – kishilarning ehtiyojlari va istaklarini qondiradigan muayyan bir ob'ekt yoki hodisaning xususiyati. Insoniy qadriyatlar tizimiga yaxshilik va yomonlik, baxt va baxtsizlik, hayotning maqsadi va ma'nosi haqidagi g'oyalar kiradi" [Radugin, A. A. 2001: b.13].

Yana bir rossiyalik olim A.A.Radugin normalarni shaxsning boshqa kishilar bilan munosabatlarini barqaror va takroriy baholash natijasi sifatida belgilaydi. Bu qadriyatlar va amaliy xulq-atvor o'rtasidagi o'ziga hos bog'liqlikdir. A. Raduginning dunyoqarash konsepiyasini ko'rib chiqishga kirishishdan awal, yuqorida biz ko'rib chiqqan barcha tadqiqotchilar dunyoqarashning strukturasini muhokama qilar ekanlar, aslida faqat uning tarkibini tasvirlaganligini ta'kidlash kerak. Tarkib va struktura o'rtasidagi farqni aniq belgilash uchun biz tarkib – qismlarning oddiy ro'yxati, struktura – komponentlar o'rtasida mavjud bo'lgan munosabatlar ierarxiysi ekanligini tushuntiramiz. Tarkibda hech qanday ierarxiya yo'q, chunki u faqat aloqa-bog'lanish tamoyilidan kelib chiqadi. Yuqorida ko'rib o'tilgan barcha tadqiqotchilar dunyoqarashni faqat tarkibiy qismlar

kombinatsiyasi sifatida tushundilar va tushuntirdilar. Shuning uchun ularning dunyoqarash strukturasi haqidagi tadqiqotlari aslida faqat uning tarkibini ko'rib chiqish bilan cheklandi.

A.A. Radugin dunyoqarashning to'rtta komponentini belgilab berdi: kognitiv (dunyoning maxsus ilmiy va universal tasviri), qadriyatiy-me'yoriy (ideallar, e'tiqodlar, ishonchlar, me'yorlar), emotsiyonal-irodaviy (bilimlarni etiqodlarga aylantiruvchi tuyg'ular) va amaliy (bilimlarni amaliyatga tadbiq etish va ideallarni amalga oshirishga tayyorlik).

Dunyoqarashning ikki darajasi mavjud: hayotiy-amaliy va nazariy. "Dunyoqarashning hayotiy-amaliy darajasi o'z-o'zidan shakllanadi va sog'lom fikr, keng va xilma-xil kundalik tajribaga asoslanadi. Dunyoqarashning bu darajasi ko'pincha hayot falsafasi deb ataladi... Hayotiy-amaliy dunyoqarash nihoyatda xilma-xildir, chunki uning tashuvchilari ta'lim va tarbiya tabiatida turlichadir" [Radugin, A. A. 2001: b.14]. Faylasuflar hayotiy-amaliy dunyoqarashning faktik individualligi muammosini nazariy darajada hal etishga harakat qilmoqdalar. Kishilar bir xil tarzda biladigan va gapiradigan, ammo boshqacha (individual tarzda) boshdan kechiradigan va his qiladigan umumiy spekulativ modellar mavjud.

Dunyoqarash ierarxiyasi quyidagicha: Radugin nazarida har qanday dunyoqarashning o'zagi qadriyatlardir. Ular hissiy-irodaviy komponentdan kelib chiqadi. Har kimning ham adolat haqidagi fikri inobatga olinmasa g'azab va nafratni his qilishi bejiz emas. Buni amerikalik psixolog olimlar M.Brandt va J.Kraufordlar tomonidan o'tkazilgan empirik tadqiqotlar ham isbotladi. Xususan ular shunday xulosa qiladilar: "Kundalik hayotda boshqalarni qoralovchi histuyg'ular (masalan, g'azab, nafrat, jirkanish) dunyoqarashga zid bo'lgan ma'lumotlarga, ijobiy hissiyotlar (masalan, g'urur, ishtiyoq) esa dunyoqarashga mos keluvchi ma'lumotlarga qaratiladi" [Brandt, M. J. & Crawford, J.T. 2020: b.36].

A.A. Raduginning so'zlariga ko'ra, qadriyatlar har qanday dunyoqarashning semantik (ma'noli) kategoriyasidir. Biroq, qadriyatiy-me'yoriy komponent faqatgina kognitiv va hissiy-irodaviy komponentlar o'zaro ta'sirlashgandagina hosil bo'ladi. Bilim dunyoqarashning sub'ekti tomonidan yetarli darajada his etilgandan, kerakli hissiy bo'yoqlarga ega bo'lgandan keyingina e'tiqodga aylanadi. Dunyoning konkret ilmiy yoki universal manzarasi tashuvchi (sub'ekt) uni tushunishga o'rgangan paytda emas, balki uning butun fikrlash tarzi va hayotiy tajribasiga mos kelganda, dunyoning manzarasi ob'ektiv bilimlardan dunyoning sub'ektiv tasviriga aylanganda individuallashadi.

Boshqacha aytganda, bilim inson tomonidan shaxsan unga (yoki uning ijtimoiy guruhiga, xalqiga) manzilli yo'naltirilmasdan hamda "o'zimniki" sifatida qabul qilinmaguncha e'tiqodlarga aylanmaydi. Qadriyatime'yoriy komponent hosil bo'lgandan so'ng amaliy komponent haqida gapirishimiz mumkin.

A.A. Radugin qarashlarining ba'zi jihatlarini tanqidiy ko'rib chiqmoq lozim. Kishilarning aksariyati o'z e'tiqodlarini sir tutishadi, shaxsiy va ijtimoiy hayotida ular konformizm tamoyillariga amal qilishadi. Ko'rinish turibdiki, e'tiqod inson xatti-harakatlari asoslaridan alohida holda mavjud. O'rtacha inson bir narsani o'ylaydi, lekin ba'zan buning aksini qiladi. Biroq, dunyoqarashning shakllanishi va faoliyat ko'rsatishida amaliyotning roli nihoyatda katta bo'lib qolmoqda. Gap shundaki, bilimlarni e'tiqodga aylantirish uchun ba'zida hissiy bo'yoqlar yetishmaydi. Bilimlar nafaqat his qilinadi, balki amalda sinovdan o'tkaziladi. Hatto ijobiy yoki salbiy hissiy rang berish bilimlarni amalda tekshirib ko'rish uchun reaksiya sifatida paydo bo'ladi, deb taxmin qilish mumkin. Masalan, amalda noto'g'ri bo'lib chiqqan biror kishining bilimi yoki bergen tavsiyasi, sub'ekt tomonidan o'sha kishining o'zini ham, bilimi yoki tavsiyasining mazmunini ham salbiy emotsiyal reaksiyalanishiga olib keladi.

Dunyoqarashning hayotiy-amaliy va nazariy darajalari o'rtasidagi aloqadorlikni aniqlash ham juda muhimdir. Yuqorida aytib o'tganimizdek, hayotiy-amaliy daraja asosan individual bo'lib, bu dunyoqarash sub'ektining amaliy faoliyati va ta'lim-tarbiya jarayonida rivojlanadi, ya'ni dunyoqarash asosan shu darajada shakllanadi. Nazariy daraja umumiy tushunchalardan iborat (deyarli har doim falsafiy), bu dunyoqarash tashuvchilarining hayotiy-amaliy darajasini transpersonallashtirishga harakat qiladi.

Nazariy daraja faqat spekulativ konstruksiyalar bilan bog'liq bo'lsa-da, dunyoqarash uyg'undir. Lekin nazariy darajada faqat o'ziga hos qadriyatlar mavjud. Masalan, ilmiy faraz uchun asosiy qadriyat ob'ektivlikdir, falsafiy konsepsiylar uchun – mantiqiylik, siyosiy ta'limotlar uchun – maqsadga (manfaatga) muvofiqlik qadriyat hisoblanadi. Agar biron bir sabablarga ko'ra nazariy qadriyat dominant pozitsiyani egallab olsa (har qanday dunyoqarash dominantlarsiz mavjud bo'lmaydi), unda darhol dunyoqarashning bo'linishi yuz beradi. Nazariy konstruksiya emotsiyal-irodaviy komponentni nazorat qilishni (bosim o'tkazishni) boshlaydi, umumlashtiruvchi xarakterdagи mustaqil argumentlar ushbu dunyoqarash tashuvchilari shaxsiy va ijtimoiy hayotining harakatlantiruvchi kuchiga aylanadi. Bu hayotiy-amaliy daraja

yo‘qoladi, degani emas. U faqat tashuvchi (sub’ekt) uchun o‘z ahamiyatini yo‘qotadi va mustaqil tarzda rivojlanadi. Natijada, inson bir narsani aytadi va boshqasini qiladi, ya’ni so‘z (fikr) va amal (ish) birligi yo‘qoladi. Shunday qilib, biz o‘z ta’limotiga zid tarzda yashagan faylasuflar (Seneka, Shopengauer) hamda o‘z ta’limotlariga zid ravishda faoliyat yuritgan va hatto o‘z ta’limotlarini juda tez-tez o‘zgartirgan siyosatchilarga (Pol Pot, Lenin) duch kelishimiz mumkin.

Bu dunyoqarashning hayotiy-amaliy darajasi muqarrar tarzda dominant ekanligi bilan izohlanadi. Zero, har qanday inson, xohish-istiklaridan qat’iy nazar, ko‘plab kichik yoki katta kundalik ishlarga botib, doimiy ravishda o‘z hayotini tashkil etish va ta’minlash bilan mashg‘ul bo‘ladi. Buni N. A. Shermuhammedova asosli tarzda shunday tushuntiradi: “Hayot tajribasi va empirik bilimlar asosida shakllanadigan dunyoqarash... har qanday dunyoqarashning negizi hisoblanadi va odamlarga kundalik hayoti, faoliyatida yo‘l ko‘rsatib, ularning xulqatvori, aksariyat qilmishlarini belgilab, muhim reguliyativ funksiyani bajaradi” [Shermuxamedova, N. A. 2012: b.8]. Nazariy daraja deyarli har doim ikkinchi darajali bo‘lib chiqadi, chunki aksariyat insonlar hayotda Makiavellining “avval yashanglar, keyin falsafa o‘qinglar” (“primum vivere deinde philosophari”) tamoyiliga amal qilib yashaydilar.

Inson abadiy savollarga javobsiz yashashi mumkin, garchi gohida bunday beparvolik ba’zi noqulayliklarga olib kelsa ham. Lekin inson to‘satdan o‘zini eng buyuk siyosatchi, faylasuf yoki olim deb tasavvur qilsa va o‘z hayotiy tajribasiga tayanmasdan spekulyativ konsepsiyalarni yarata boshlasa, unda ular oddiy mavhum narsalarga aylanadi. Bundan tashqari, nazariy darajadagi qadriyatlar har doim ham amaliy hayotning qadriyatlari bilan bog‘liq bo‘lavermaydi va tegishli dominantligi bilan ham ulardan ustun turadi. Natijada, hayotdan ajralgan siyosatchi, faylasuf yoki olim hayotni isloh qilish va uni o‘z nazariyalariga moslashtirishga intiladi. Bunday odamning shaxsiy, amaliy hayoti nazariy darajaga bog‘liq bo‘laman holda yo‘nalish oladi. Bu inson tomonidan yaratilgan nazariyalar haqiqiy holatga mos kelmaydi. Ular hayotiy amaliyotdan uzilib qoladilar. Albatta, eng hudbin va narsistik shaxs ham o‘zini to‘liq atrofdan, hayotdan ixotalay olmaydi va ixtiyoriy ravishda yoki noilojlikdan muayyan kundalik muammolarni hal qilishga majbur bo‘ladi. Shunda ongda ikkilanish yuz beradi. Bir tomonidan, porloq, ammo mutlaqo amalga oshirib bo‘lmaydigan nazariy loyihalar, ikkinchi tomonidan, nazariy konstruksiyalarga mutlaqo nomuvofiq bo‘lgan kundalik hayot.

Biroq, A.A. Radugin nazariyasining mantiqiy uyg‘unligi va yangilikiga qaramay, biz uni o‘zgarishsiz qabul qila olmaymiz. Zero, amaliy komponentning rolini bir oz boshqacha jihatdan ko‘rib chiqamiz. Shuningdek, biz dunyoqarashni ikki darajaga bo‘lish qiyin va umuman kerak emas, deb hisoblaymiz. Hayotiy-amaliy daraja, albatta, mavjud va A.A.Radugin nazariyasida to‘g‘ri tasvirlangan. Lekin nazariy darajaning mohiyati aniq emas. Darhaqiqat, ayrim kishilar uchun nazariy tuzilmalar hayot amaliyoti sohasiga tegishli. Bular: o‘qituvchilar, faylasuflar, yozuvchilar va boshqalar. Talaba uchun nazariy bo‘lgan konstruksiya falsafa o‘qituvchisi uchun hayot amaliyotining ajralmas qismidir. Nazariy daraja anchagina munozarali, shu bois biz dunyoqarashning darajalarga bo‘linishidan voz kechishni taklif qilamiz. Nazariy konstruksiyalarni tafakkur bilan tenglashtiramiz va ular hayot amaliyoti bilan mos kelishi yoki kelmasligi mumkin, deb hisoblaymiz.

Yuqorida bayon etilgan kamchiliklarga qaramasdan, bu nazariya dunyoqarash strukturasini o‘rganishda oldinga tashlangan muhim qadam bo‘ldi. A. A. Radugin konsepsiyasining muhim yangiliklaridan biri – ob’ektning komponentlari o‘rtasidagi aloqa prinsipini ochib berishga uringanidir.

Afsuski, uzoq vaqt davomida dunyoqarashning ierarxiyasini aniq va vizual tarzda qurish imkonsiz, deb ishonishgan. Ushbu masala bo‘yicha Sovet tadqiqotchisi Y. M. Xakimov shunday ta’kidlaydi: “ierarxiyani rasmiy ravishda tasvirlashga urinishlar uning nazariy qoidalarining yo‘qligi va konseptual va kategoriya apparati ishlab chiqilmaganligi sababli katta natijalarga olib kelmaydi” [Xakimov, E. M. 1986: b.28].

Shuning uchun biz faqat F.Engels tomonidan ishlab chiqilgan va B.M.Kedrov tomonidan ommalashtirilgan bo‘ysunish tamoyiliga tayanishimiz mumkin. Materiyaning harakat shakllari haqida gapirar ekan, Engels ular orasidagi ierarxiyani bayon qildi. Bu tamoyilni ma’naviy ob’ektlarga tatbiq etishimiz mumkin, chunki dialektika qonunlari barcha ob’ektlarga tegishlidir. Qisqacha aytganda, bo‘ysunish tamoyili quyidagilardan iborat: “Ushbu mutlaqo yangi yondashuv natijasida ilmiy tadqiqotlar ob’ektlarini bitta umumiy chiziqda ketma-ket joylashishi yuqoriga qarab harakatlanuvchi materiyaning progressiv rivojlanish jarayonini aks ettirdi (pastdan yuqoriga, oddiydan murakkabga). Boshqacha qilib aytganda, murakkabroq ob’ekt oddiyroq ob’ektdan kelib chiqqan, deb qaraladi va shunga ko‘ra uni o‘rganadigan “oliy fan” “quyi fan” dan kelib chiqqan va rivojlangan, deb hisoblanadi. Bunday yondashuv “bo‘ysunish tamoyili” deb nomlanadi” [Kedrov, B. M. 1986: b.313]. Dunyoqarash ierarxiyasini tuzishda biz uning

sodda tarkibiy qismlardan iborat emasligini yodda tutib oddiydan murakkabga o'tamiz.

Shunday qilib, dunyoqarashning faoliyatida soddaligi, ahamiyati va xronologiyasi nuqtai nazaridan birinchi navbatda, biz bilimlarni (bilimlarni noto'g'ri va haqiqiyga ajratishdan oldin ularni o'z ichiga olgan kognitiv komponent) joylashtiramiz va ikkinchi navbatda, bu bilimlarni amalda sinab, tekshirib ko'ramiz (bilimlarni haqiqatni mezoni bilan to'g'ri va noto'g'riga ajratuvchi amaliy komponent). Ushbu afzallik yangi bilim deyarli har doim hissiy neytral ekanligi bilan izohlanadi va ular muvaffaqiyatli yoki muvaffaqiyatsiz amaliy sinovdan so'ng muayyan rang oladi.

Jahonda kechayotgan iqtisodiy, moliyaviy inqirozlar va ular bilan uzviy bo‘lgan turli ijtimoiy guruh va qatlamlar orasidagi nizolarning keskinlashuvini, ayrim xalqlar o‘rtasidagi qon to‘kilishlarning oldini olib bo‘lmayotgan siyosiy inqirozlarga olib kelmoqda.

Bizning hududimizda ham odamlarni qul qilib chet ellarga sotish, giyohvandlik va “narkobiznes”, korrupsiya, uyushgan jinoyatchilik, poraxo‘rlik kabi jinoiy faktlar yuzaga chiqayotgani, avlodlar, oila a’zolari orasida kelishmovchilik va ajrashuvlar, shuningdek, mahalliychilik mavjudligi ham sir emas.

Chindan ham jamiyatimizning ma’naviy hayotiga stixiyali ravishda katta tezlik bilan oqib kirayotgan “ommatiy madaniyat” tahdidlaridan, chet el madaniyatining oila ildizlariga bolta uradigan axloqsizlik va zo‘ravonlik kabi illatlardan himoyalash vositasi sifatida o‘zbek jamiyati strukturasini tashkil etayotgan turli ijtimoiy guruh va qatlamlar o‘rtasidagi ijtimoiy hamjihatlik, hamkorlik va sheriklik asosida ish olib borishlari kerakligini yana bir marta ko‘rsatib turibdi.

Yuqorida omillar huquqiy demokratik davlat va fuqarolik jamiyati qurishday murakkab jarayon “o‘ta murakkab sharoitda – bozor iqtisodiyoti munosabatlari va chuqr modernizatsion islohotlar olib borilayotgan, yangicha ijtimoiy munosabatlar qaror topayotgan keskin

bir vaziyatda” tashqi mafkuraviy tahdidlar, global inqiroz va informatsion portlash sharoitida kechayotganini hisobga olishni taqozo etadi.

Jamiyat a’zolarida shakllanishi kerak bo’lgan dunyoqarash hozirgi globallashuvga va jamiyatning axborotlar uchun ochiqligi shart-sharoitlariga javob bera oladigan darajada teran bilim, sof, ezgu histuyg’ularga hamda mustahkam e’tiqodga tayanishi va tolerant tabiatli bo’lishi zarur.

G’arb jamiyatshunoslari globallashuv barcha mamlakat va xalqlarni ji pslashtiradigan progressiv jarayon ekanligini ta’kidlashadi. Chindan ham globallashuv orqali jahon iqtisodiy tizimi xalqaro huquq tartibotini hamda millat va xalqlarning madaniyati va statusini o’zgartirish yo’li bilan butun insoniyatni ikki katta qatlamga – o’ta boy va o’ta kambag’allar stratasiga ajralib ketishiga olib kelmoqda. Tabiiyki, buning oqibatida hech bir millat, mamlakat, xalq o’zligini saqlab qola olmaydigan yangi tartibni vujudga keltirmoqda. Natijada boylarning yanada boyishi, kambag’allarning esa yanada qashshoqlashishi kuzatiladi.

Tengsizlik muammosi zamonaviy jamiyat uchun asosiy masala hisoblanadi. Sotsial stratifikatsiya ijtimoiy-falsafiy ta’limotlarning markaziy muammolaridan biri bo’lib, uning atrofida ko’plab ilmiy va mafkuraviy nizolar kelib chiqqan. Postmodern jamiyatshunos olimlarini “nima uchun jamiyatdagi ba’zi guruhlar boshqalarga qaraganda boy yoki ko’proq kuchga ega”, “postindustrial jamiyatlarda tengsizlik qanday ko’rinishlarda namoyon bo’lmoqda” hamda “taraqqiyparvar jamiyatda nima uchun qashshoqlik davom etmoqda” kabi ko’plab savollar qiynab kelmoqda.

Ushbu muammoning ahamiyati sotsial-falsafiy bilim tarixida doimiy ravishda o’rganib kelinadi. Tengsizlikni tavsiflash va izohlash uchun olimlar sotsial stratifikatsiya nazariyasidan foydalanadilar. “Stratifikatsiya” atamasi muayyan ijtimoiy guruhlarning ijtimoiy ierarxiya tizimidagi o’rnini ochib beradigan ijtimoiy strukturaning vertikal qismini anglatadi. “Strata - bu tabaqalanish miqyosida o’xshash ob’ektiv ko’rsatkichlarga ega bo’lgan odamlarning ijtimoiy qatlami. Har bir qatlamga faqat bir xil daromadga, kuchga, ma’lumotga va obro’ga ega bo’lgan kishilar kiradi” [Aliyev, B. 2011: b.128]. Shunga muvofiq jamiyat ma’lum bir ierarxiyada tartibga solingan “qatlamlardan” iborat deb hisoblanadi.

Ijtimoiy tizimning turli jihatlari, qatlam va sinflarning o’zaro munosabatlarini, ularning xususiyatlarini o’rganib, biz kelajakdagi jamiyat qanday bo’lishi mumkinligi haqidagi savolga javob berish

uchun jamiyat naqadar murakkab tuzilishdagi ijtimoiy borliq ekanligini tobora anglab boramiz.

“O‘zbekiston Respublikasini rivojlantirishning beshta ustuvor yo‘nalishi bo‘yicha Harakatlar strategiyasi”ni amalga oshirish jarayonining o‘ziga xos xususiyati eskicha fikrlash va yashash tarzini o‘zgartirish va yangi ijtimoiy tuzilmalar va institutlarni yaratish orqali yuzaga keladigan muammolarni bartaraf etishdir [PF 4947-son. 2017].

Real bozor iqtisodiyoti sharoitida mulkchilik shakllari va munosabatlari, siyosiy hokimiyat va boshqaruva shakllari, adliya tizimi, umuman olganda turmush tarzi o‘zgarmoqda. O‘zbek jamiyatining o‘zgarish jarayoni ko‘plab murakkab iqtisodiy, siyosiy va ijtimoiy jarayondir.

## MATERIALLAR VA METODLAR

Mustabid tuzum asosiy “qadriyat”laridan biri bo‘lgan ijtimoiyadolat va tenglik hisoblangan sotsialistik jamiyat ko‘plab islohotlar natijasida kambag‘allik va boylik qutblari o‘rtasida bo‘linib, ijtimoiy va madaniy jihatdan chuqur ajratilgan edi. Bozor iqtisodiyotiga asoslangan jamiyat tomon tezkor harakat O‘zbekiston jamiyatni ijtimoiy tabaqalanish tizimining o‘zgarishiga va yangi mezonlarining shakllanishiga olib keldi. “Mulkka egalik qilish”, “moliyaviy-iqtisodiy kapitalning mavjudligi”, “ijtimoiy mavqe” va boshqa mezonlarning ahamiyatini tahlil qilish zarurati tug‘ildi.

Stratifikatsiya muammolarining paydo bo‘lish tarixi klassik ijtimoiy fikr (ijtimoiy-siyosiy falsafa) nazariyalariga, shu jumladan J.J.Russo, A.Smit, D.Rikardo, Sen-Simon kabi mualliflarning asarlariga, shuningdek klassik sotsiologlarning O.Kont, G.Spenser, M.Veber, P.Sorokin va zamonaviy ishlanmalar U.Uorner, Ch.Millz, G.Breyverman, O.Rayt, A.Turen, R.Darendorf, P.Burde asarlariga borib taqaladi.

O‘zbek xalqi milliy mafkurasingning bosh va asosiy g‘oyasi, bunyodkor, dunyoviy, umumxalq hamda umumbashariy g‘oyalari jamiyat va odamlarni, turli guruh va qatlamlar, millat va davlatlarni taraqqiyot sari yetaklovchi, xalqni ezgu maqsad yo‘lida birgalikda harakat qilishga undovchi g‘oyalari ekanligi, ularga bir qator ezgu g‘oyalari bilan bir qatorda ijtimoiy hamkorlik alohida o‘ringa egaligi to‘g‘risida I.Karimov [Karimov, I. 2000: b.502], I.Ergashev, Sh.Paxrtdinov [Ergashev, I. 2005], S.Mamashokirov [Mamashakirov, S. 2007], B.Umarov [Umarov, B. 2006], A.Muxtorov [Muxtorov, A. 2015], J.Yaxshilikov va N.Muxammadiyevlar [Yaxshilikov, J. & Muxammadiyev, N. 2017] o‘z ilmiy tadqiqotlarida qator fikr-mulohazalar bildiradilar.

Bugungi kunda demokratik taraqqiyot, hayotni erkinlashtirish, vijdon erkinligi, inson manfaatlarini ta'minlash, fikrlar rang-barangligi, mulkiy plyuralizm ijtimoiy hamkorlik va bag'rikenglik tamoyillariga tayanadi.

“Manfaatli hamkorlik” tamoyili jahon hamjamiyati uchun birdek ahamiyatlidir. Jamiyatdagi turli sinf va guruhlarning o‘z ehtiyoj, maqsad-muddaolari bo‘lishi tabiiy. Agar biron-bir guruh manfaatlari boshqa qatlamlar ehtiyojlariga zid qo‘yilsa, jamiyatda nizo va konfliktlar kuchayadi, ijtimoiy hamkorlik tamoyillariga putur yetadi.

O‘zbek xalqi turmush tarzining ma’naviy-madaniy asoslarining haqiqiy o‘zagini tashkil qiluvchi asosiy belgilari sifatida mehmondo‘stlik, barcha millat va ellatlar, din vakillari bilan teng huquqli hamkorlikka moyilligini ko‘rsatish mumkin.

Prezidentimiz Sh.M.Mirziyoyevning “Bu borada ilgari ham aytgan bir fikrimni takrorlashni istardim. Biz qo‘snilarimiz bilan raqobat qilish emas, aksincha, hamkorlik qilish yo‘lini izchil davom ettiramiz. Hamkorlikni tinchlik va taraqqiyotning asosiy garovi deb bilamiz. Qo‘snilarimiz bilan o‘zaro hurmat va manfaatli hamkorlikni qancha rivojlantirsak, bundan yurtimiz ham, butun mintaqamiz ham shuncha ko‘p naf ko‘radi” – degan fikri ijtimoiy hamkorlik prinsipi yangilanayotgan O‘zbekiston jamiyatining barcha sohalariga kiritishni, unga amal qilib islohotlarni amaliyatga joriy etish zarurligini ko‘rsatadi [Mirziyoyev, Sh.M. 2017: b.480].

Globallashuv sharoitida davlatning bosh islohotchilik roli, eng avvalo, jamiyatdagi ijtimoiy hamkorlikni ta’minlaydigan iqtisodiy-huquqiy asoslarni, siyosiy-madaniy muhitni shakllantirish, boshqarish va nazorat qilish faoliyatida namoyon bo‘ladi. Shuning uchun ham jamiyat hayotining barcha sohalarini erkinlashtirish ijtimoiy hamkorlikning zaruriy sharti sifatida qaralishi kerak.

“Globallashuv savdo, investitsiya, moliya-iqtisod, madaniyat va boshqa iqtisodiy-ijtimoiy sohalarda hukumatlar, tashkilotlar va xalqlarning o‘z mamlakatlari chegaralaridan chiqib, hamkorlikka intilishi degan ta’riflar keltirilgan [Paxrutdinov, Sh. 2011: b.131].

Ijtimoiy hamkorlik tushunchasi jamiyatning ijtimoiy tarkibi bilan o‘zaro aloqadordir. Ijtimoiy birliklarning o‘ziga xos bo‘lgan maqsad va vazifalari ham mavjud. Eng asosiysi, ularni yagona mafkuraviy maqsad bayrog‘i ostida birlashtirishdir. Bu sharafli vazifani bajaradigan eng muhim g‘oyalardan biri - jamiyatdagi turli toifalar, siyosiy kuchlar va partiyalar o‘rtasidagi ijtimoiy hamkorlikdir.

## **MUHOKAMA VA NATIJALAR**

Guruh va qatlamlar tuzilishi ko‘p o‘lchovli, ierarxik jihatdan tashkil etilgan ijtimoiy maydon bo‘lib, ular hokimiyat, mulk va ijtimoiy mavqe va maqomga ega bo‘lish darajasi bo‘yicha bir-biridan farq qiladi. Ijtimoiy qatlam deganda global ijtimoiy tizim tuzilishida turlicha o‘rin tutadigan, ular o‘rtasida ijtimoiy tengsizlik bo‘lgan ijtimoiy-iqtisodiy guruhlar tushuniladi.

Globallashuv davrida barcha jamiyatlarning ijtimoiy tuzilishida sezilarli o‘zgarishlar ro‘y berdi. Ushbu o‘zgarishlar ijtimoiy qatlamlar mezonlarini o‘zgartirdi. Zamonaviy ijtimoiy qatlamlar va guruhlarning holati, rivojlanish tendensiyalari o‘zgardi, globallashuv jarayoni sharoitida ijtimoiy harakatchanlikning yangi imkoniyatlari paydo bo‘ldi. Globallashuvning ijobiy va salbiy tomonlari ushbu jarayonda ishtirok etayotgan turli mamlakatlarning iqtisodiy, tabiiy, demografik, madaniy va boshqa sharoit va imkoniyatlariga, shuningdek ularning haqiqiy maqsadlariga muvofiq belgilanadi.

Yangi davrda jamiyatimiz strukturasining ijtimoiy o‘zgarishi tabaqlanish tizimida ilgari mavjud bo‘laman qatlamlarning paydo bo‘lishi bilan izohlanadi. Bularga bevosita ishsizlar, marginallashgan kishilar sinfi, ijtimoiy himoyaga muhtoj aholi qatlami, yirik va o‘rta mulkdorlar sinfini kiritish mumkin. O‘z navbatida, ijtimoiy tuzilmaning o‘zgarishi shaxs va guruhning o‘ziga xosligini anglash, ushbu qatlamlarning yangi ijtimoiy voqelikka moslashishi, ularning ijtimoiy ierarxiyadagi o‘rni, yangi maqom, rol va funksiyalari bilan bog‘liq ilmiy tahlil etilishi kerak bo‘lgan muammolarni keltirib chiqaradi.

Dunyo boyliklarining katta qismi “sanoatlashgan” yoki “rivojlangan” davlatlar qo‘lida to‘plangan bo‘lib, “rivojlanayotgan mamlakat” xalqlari keng tarqalgan qashshoqlik, aholining haddan tashqari ko‘pligi, ta’lim va sog‘liqni saqlash tizimining qoniqarsiz darajalari va tashqi qarz hamda yalpi ichki maxsulotning aholi jon boshiga taqsimlanishi kabi muammolardan aziyat chekmoqda. Dunyoning rivojlangan va rivojlanayotgan qutblari orasidagi tafovut XX asr davomida tez sur’atlar bilan kengaydi hamda bugungi kunda bu insoniyat tarixidagi eng yuqori darajadir. Rivojlanayotgan mamlakatlarda iqtisodiy o‘sish va ishlab chiqarish darajasi aholi o‘sishi sur’atidan sezilarli darajada orqada qolib ketgan bo‘lsa, rivojlangan mamlakatlarda iqtisodiy rivojlanish bu borada ishonchli tarzda oldinga siljib ketdi. Ushbu tendensiyalar dunyodagi eng boy va kambag‘al davlatlar o‘rtasidagi tub farqlanishga olib keldi. Globalashuv ushbu

tendensiyalarni yanada keskinlashtirib, ma'lum davlatlar qo'lida daromad, boylik va resurslarni to'planishiga yordam berdi.

Globallashuv oqibatlari ijtimoiy hayotning deyarli barcha sohalariga ta'sir qiladi. Ammo globallashuv ochiq va ichki ziddiyatli jarayon bo'lgani uchun uning oqibatlarini oldindan bilish va boshqarish mushkuldir. Bu o'rinda falsafiy bilimlarning prognostik funksiyasi alohida ahamiyat kasb etadi [Shermuxamedova, N. 2014: b.127]

Zamonaviy ijtimoiy hayot – bandlik sohasida yangi tendensiyalarning paydo bo'lishi, ertangi kunga nisbatan noaniqlik, shaxsni shakllantirishda urf-odatlar va ularning ta'siri, oilaning ijtimoiy mas'uliyatini oshirish va ijtimoiy munosabatlarni demokratlashtirish kabi sifatlar bilan tavsiflanmoqda. Ushbu xavflar bilan bir qatorda, tengsizlikni oldini olish muammosi alohida jamiyatda ham, dunyoning turli mamlakatlari o'rtasida ham yuzaga keladi.

So'nggi yillarda tengsizlikning ijtimoiy ahamiyati qay darajada o'zgargan? Tahillilar natijasi shuni ko'rsatmoqdaki, ijtimoiy tengsizlik munosabatlari deyarli doimiy bo'lib kelgan. Biroq, boshqa tomonidan "o'rta sinf jamiyati" butunlay yuqori qavatga ko'tarildi. Umumiylar daromadlarning o'sishi, ta'lim olish imkoniyatlari, tadbirkorlik faoliyati, turizm imkoniyatlari oshdi, huquqiy ta'minot va iste'mol tovarlari savatchasi ta'minoti oshdi. Turmush darajasini yaxshilash borasida yashash imkoniyatlarini kengayishi, umr ko'rish davomiyligi sezilarli darajada oshishi; faol mehnat vaqtining kamayishi, ish haqi bir necha baravar oshganligi bilan belgilanadi. Shu bilan birga, mavjud ijtimoiy vaziyatlar hamda turmush tarzini individuallashtirish va diversifikatsiya qilish jarayoni boshlandi. Bu mavjud ijtimoiy guruh va qatlamlarning ierarxik modelini o'zgartirib, uning haqiqiy tarkibiga shubha tug'diradi.

O'zgarishlar jarayonida an'anaviy sinf haqidagi munozaralar haqiqatni aks ettirmaydigan ma'noga aylandi. XX asrning ikkinchi yarmidagi ishchilar sinfi va mehnat harakati haqidagi munozaralar noto'g'ri alternativaning muhri bilan belgilanadi [Richard Anker. 2008].

Bir tomonidan, tobora ko'proq kapitalizm sharoitida ishchi sinfning mavqeい yaxshilanganligini ko'rsatuvchi (moddiy farovonlik, ta'lim olish imkoniyatlari, kasaba uyushmasi va siyosiy tashkilotlar, ijtimoiy kafolatlarga bo'lgan huquqlar) dalillar keltirilmoqda. Boshqa tomondan, barcha yaxshilanishlarga qaramay, sinf ahvoli, ya'ni mehnatga munosabat va unga bog'liqlik, begonalashuv va xatarlar o'zgarishsiz qolmoqda, bundan tashqari ular yanada kengayib va kuchaymoqda (ishsizlik, professionalizm yetishmasligi va boshqalar). Ushbu xulosalar birinchi

holda – ishchi sinf parchalanganligini isbotlash, ikkinchidan esa – mavjudligini davom ettirishga urinishdir. “Ikkala holatda ham rivojlanishning asosiy yo‘nalishi tan olinmaydi, ya’ni: sinf va sinfning tarixiy simbiozi parchalanadi va shu tariqa, bir tomonidan, sinf subkulturalari yo‘qoladi, ikkinchi tomonidan, sinf tabiatining asosiy belgilari umumlashtiriladi” [Maxkamova, Sh. 2017].

Ko‘rinib turibdiki, har qanday ijtimoiy inqirozlar individual bo‘lib ko‘rinadi va endi ularning ijtimoiy mazmunida sezilmaydi. Ijtimoiy hayot shakllari va qadriyatlar o‘zgarganda, iqtisodiy tamoyillar muqarrar ravishda o‘zgaradi. Boshqacha aytganda, texnologik taraqqiyot ijtimoiy taraqqiyotga tengdir. Ammo, hozirgi vaqtida xavflarning oshishi sababli texnik va ijtimoiy taraqqiyotning muvofiqligi yo‘qolib bormoqda.

Ijtimoiy tabaqalanishni tahlil qilish uchun sotsiologik nazariyalar ikki asosiy yondashuv – sinf va maqom tabaqalanishni taklif qiladi. Muammoni o‘rganish jarayonida zamonaviy sinf tushunchalari ko‘pincha marksistik yondashuvga zid kelishi aniqlandi. Mulkka egalikning sanoatni boshqarish va nazoratdan ajralishi “mulk yetishmasligi”ni shunday keng toifaga aylantiradiki, undan foydalanishda turli xil iqtisodiy mavqeni egallagan guruhlarni, masalan, menejerlar va oddiy ishchilar o‘rtasidagi farqni ajratib bo‘lmaydi. Postmodern jamiyatdagi shaxslarni kasb, din, ma’lumot yoki etnik kabi iqtisodiy konsepsiya bog‘liq bo‘laman omillar asosida tasniflash mumkin. Ular M.Veberning maqom to‘g‘risidagi g‘oyasidan foydalanadilar va ko‘p o‘lchovli yondashuvni ishlab chiqadilar, unga ko‘ra ijtimoiy mavqe yoki obro‘-e’tibor iqtisodiy sinf omilini to‘liruvchi mustaqil omil hisoblanadi.

Sinflarni tahlil qilish tamoyillari sifatida qayd etiladigan “ijtimoiy sinf” toifasi ba’zi jamiyatshunos olimlar tomonidan inkor etilib, hozirgi zamon jamiyatlarini tushunishga hissa qo‘shmaydi degan tanqidga uchraydi. Aftidan, irq va jins kabi stratifikatsiya asoslari katta ahamiyatga ega. Odamlarning sinfga mansubligiga qarab harakat qilishi yoki fikr yuritishi ehtimoli kamroq, shuning uchun ijtimoiy sinf va g‘oyalar, e’tiqodlar sohasi o‘rtasidagi bog‘liqlik deyarli yo‘qoladi.

## XULOSA

O‘zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish bo‘yicha Harakatlar strategiyasining to‘rtinchchi yo‘nalishi kontekstida “ijtimoiy tabaqalanish” tushunchasi alohida o‘rin tutadi. Jamiyatning qatlam va guruhlarga bo‘linishi orqali alohida tabaqalari – nogironlarni ijtimoiy himoya qilish, nafaqaxo‘rlarni qo‘llab-quvvatlash, tadbirkorlikka keng

imkoniyatlar yaratish, yoshlarni ish bilan ta'minlash, gender tengligi, kam ta'minlangan oilalar farovonligini oshirish bo'yicha chuqur islohotlar olib borilmoqda. Jamiyatning tabaqalanishida o'rta sinf alohida o'rin tutadi. Vatanimizda ijtimoiy barqarorlikni mustahkamlashning eng muhim elementi va kafolati bo'lgan o'rta sinf – mulkdorlar sinfini shakllantirish muhimligini ta'kidlanishi bunga misol bo'la oladi.

O'rta sinf jamiyatning ustuni va harakatlantiruvchi kuchidir. Shuning uchun ilmiy tadqiqotlarda o'rta sinfning darajasini oshirish, uning jamiyatdagi ahamiyatini yuqori mavqega ko'tarish tahlil qilinadi. Tadqiqotchilarning e'tibori odatda daromadlarni taqsimlashdagi tengsizlikka qaratiladi, chunki bu aniq o'Ichov uchun taqdim etilgan va mavjud bo'lgan parametrdir. Olimlarning ta'kidlashicha, qashshoqlikni oldini olish yo'lidagi to'siqlarni bartaraf etishga olib keladigan, "real bozor iqtisodiyoti" tamoyillarini qo'llash zarur, bu esa mamlakatlarga o'rta sinfni yaratishga va boy davlatlar bilan raqobatlashishga yordam beradi.

Rivojlangan davlatlar ijtimoiy stratasida o'rta sinfning ulushi 60-70%ga yetadi va tanlangan taraqqiyot yo'lining barqarorligidan dalolat beradi.

Zamonaviy sotsial falsafiy ta'llimotlarda o'rta sinfni aniqlash:

- hayot darajasini belgilaydigan farovonlik darjasи;
- yuqori texnologiyalashgan xo'jalik buyumlari va xizmatlardan foydalanish qobiliyati;
- yuqori malakali mehnat sharoitlari yoki korxona, tashkilotni boshqarish imkonini beradigan ta'lim va madaniyat darjasи;
- iqtisodiyotning bozor shakliga yo'naltirilgan, mustaqillik va o'zini-o'zi moliyalashtiradigan, kapital yig'ish va investitsion aktivlik shaklidagi boshqaruv;
- demokratik tamoyillar, qonunlarga bo'ysunish va davlatning qonunlar va inson huquqlarini himoya qilish talablari bilan belgilanadigan siyosiy yo'nalishlari;
- mehnat muvaffaqiyati, turmush tarzi, jamiyat a'zolari o'rtasidagi mavqeい kabi omillar bilan xarakterlanadi. [PROON, 2019].

Shunday qilib, sifat tavsiflarida birinchi navbatda, mehnat sharoiti va tarkibi, turmush tarzi har qanday jamiyat dinamikasida o'rta sinfning barqarorlashuv roli asos qilib olinadi.

"Fuqarolik jamiyatining rivojlanishi va o'rta sinfning shakllanishi deyarli sinonimdir" [Jalilov, A. 2015].

Jamiyat tuzilishida o'rta sinf ulushi mamlakat rivojlanish darajasining asosiy ko'rsatkichlaridan biridir. Innovatsion faoliyat uchun qulay iqlim kichik va o'rta korxonalarning moslashuvchanligi va mustaqilligini belgilaydi. Bugungi kunda, ko'plab rivojlangan mamlakatlarda kichik biznes va xususiy tadbirkorlik o'rta sinfning shakllanishiga bevosita ta'sir ko'rsatmoqda.

Maqolada tahlil qilingan muammo yuzasidan quyidagi xulosalarga kelindi va tavsiyalar shakllantirildi:

- o'rta sinf jamiyatning ustuni va harakatlantiruvchi kuchidir. Sotsial stratifikatsiya tizimida o'rta sinfning katta qismi jamiyatning "rivojlangan", "sivilizatsiyalashgan" deb ta'riflangan muhim xususiyatlaridan biridir;

- o'rta sinf miqdorini aniqlash uchun barcha mamlakatlar uchun yagona metodologik yondashuv mavjud emas, har bir mamlakat o'zining milliy xususiyatlarini hisobga olgan holda o'z usulini tanlaydi;

- yashash sharoitlarining ijtimoiy standartlari ishlab chiqilgan mamlakatlarda aholini qonunchilikda belgilangan iste'mol standartlariga qarab o'rta sinfga ajratish mezonlari belgilangan;

- tovar va xizmatlarni ishlab chiqarishda o'rta sinf darajasini hisobga olish tavsiya etiladi, chunki asosiy iste'molchi o'rta sinf – bu jamiyatning ijtimoiy barqarorligining ko'rsatkichidir. Va bu hududlarni ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirishning strategik rejalarida o'z aksini topishi va o'rta sinfni rivojlantirish va kuchaytirishga qaratilgan chora-tadbirlar ishlab chiqilishi kerak;

- tadbirkorlikka keng imkoniyatlar yaratish, kam ta'minlangan aholini ijtimoiy himoya qilish, ularning bilim olish va samarali mehnat qilishlari uchun imtiyozlar berish kerak, chunki asosiy aholini (65%) yoshlar tashkil etadi;

- yoshlar muammolarini hal qilish va ularni ish bilan ta'minlashga e'tibor qaratish: yoshlarni ishlab chiqarish sohasidagi faoliyatini uchun qo'llab-quvvatlash uchun rag'batlantirish; o'quv yurtlarida texnik mutaxassisliklarni kengaytirish va kichik yoshdan boshlab innovatsion faoliyatga jalb qilish uchun ixtisoslashtirilgan texnik to'garaklar, uyushmalar tashkil etish zarur.

## BIBLIOGRAFIYA

ALIYEV, B. & MULLAJONOVA, M. & RAXMONOV, B. (2011). "Sotsiologiya". Darslik. Toshkent, Iqtisodiyot, - B.128.

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.Mirziyoevning "O'zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish bo'yicha harakatlar

strategiyasi to‘g‘risida”gi qarori - 2017-yil 7-fevraldagi PF-4947-son.

KARIMOV, I.A. (2000). Ozod va obod Vatan, erkin va farovon hayot – pirovard maqsadimiz. 8-jild. -Toshkent: “O‘zbekiston”.

ERGASHEV, I. (2005). O‘zbekiston jamiyatini demokratlashtirish va yangilash, mamlakatni modernizatsiya va isloh qilish yo‘lida. - Toshkent: Akademiya.

MAMASHAKIROV, S. & TOG‘AYEV, Sh. (2007). Erkin va farovon hayot qurilishining g‘oyaviy-mafkuraviy masalalari. -Toshkent: “Ma’naviyat”.

UMAROV, B. (2006). Globallashuv ziddiyatlari: iqtisodiy, ijtimoiy va ma’naviy jihatlari. -Toshkent: Ma’naviyat.

MUXTOROV, A. (2015). Globallashuv sharoitida ma’naviy tahdidlarni bartaraf etish omillari. -Toshkent: Ma’naviyat.

YAXSHILIKOV, J.Y. & MUXAMMADIYEV, N.E. (2015). Milliy g‘oya va mafkura. Monografiya. -Toshkent: “Fan”.

YAXSHILIKOV, J.Y. & MUXAMMADIYEV, N.E. (2017). Milliy g‘oya – taraqqiyot strategiyasi [Matn]: monografiya / -Toshkent: “Fan”.

PAXRUTDINOV, SH. (2011). Barqaror taraqqiyot va rahbar mas’uliyati. -Toshkent: Akademiya.

SHERMUXAMEDOVA, N.A. (2014). “Ilmiy tadqiqot metodologiyasi” Darslik. Toshkent, «Fan va texnologiya», 512 bet.

RICHARD ANKER. (2008). Черта бедности в странах мира: новая методология и сопоставимые оценки // Международный обзор труда. – Том 144. – №4. – Москва.

МАХКАМОВА, Sh.Y. (2017) Стратификация общества и средний класс «**Biznes-Эксперт**» илмий-амалий, итисодий ойлик журнали: №10(118)

Продовольственная безопасность в Узбекистане. (2019). ПРООН. <http://msd.com.ua/ideas/>

JALILOV, A. & MUHAMMADIYEV, U. & JO‘RAYEV, Q. va boshq. (2015). Fuqarolik jamiyati asoslari: o‘quv qo‘llanma— Toshkent, 264 b.

## **TRANSLITERATION**

ALIYEV, B. & MULLAJONOVA, M. & RAKHMONOV, B. (2011). “Sociology”. Textbook. Tashkent, Economics, - P.128.

The decision of the President of the Republic of Uzbekistan Sh.Mirziyoev “About the strategy of further development of the Republic of Uzbekistan” - from February 7, 2017 of No. P-4947.

KARIMOV, I.A. (2000). Free and prosperous motherland, free and prosperous life is our ultimate goal. Volume 8 - Tashkent: "Uzbekistan".

ERGASHEV, I. (2005). Towards democratization and renewal of Uzbekistan's society, modernization and reform of the country. - Tashkent: Academy.

MAMASHAKIROV, S. & TOGAYEV, Sh. (2007). Ideological and ideological issues of building a free and prosperous life. - Tashkent: "Spirituality".

UMAROV, B. (2006). The contradictions of globalization: economic, social and spiritual aspects. - Tashkent: Spirituality.

Mukhtorov, A. (2015). Factors for Eliminating Moral Threats in Globalization. - Tashkent: Spirituality.

YAKSHILIKOV, J.Y. & MUKHAMMADIYEV, N.E. (2015). National Ideas and Ideas Monograph. - Tashkent: "Science".

YAKSHILIKOV, J.Y. & MUKHAMMADIYEV, N.E. (2017). National Idea - Development Strategy: Monograph / - Tashkent: Science.

PAXRUTDINOV, NE. (2011). Sustainable Development and Leadership Responsibility. - Tashkent: Academy.

SHERMUKHAMEDOVA, N.A. (2014). Textbook "Methodology of Scientific Research". Tashkent, "Science and Technology", 512 pages.

RICHARD ANKER. (2008). Flatbed bed sheet in stranax mira: new methodology and combinations // // Международный обзор труда. - Tom 144. - No. 4. - Moscow. 2008.

MAKKAMOVA, Sh.Y. (2017) *Stratification of Science and Business Class "Business Expert" Monthly Economic and Economic Journal: №10 (118)* -2017

Prodovolstvennaya bezopasnost в Узбекистане. (2019). PROON. <http://msd.com.ua/ideas/>

JALILOV, A. & MUHAMMADIYEV, U. & JOURAYEV, Q. et al. (2015). Civil Society Fundamentals: Handbook - Tashkent, 264 p.

**Шарипов Абдухакимжон Зиёйтдинович (Узбекистан, Бухара)**

## **Социальные стратификационные процессы и социальное партнерство в глобализации**

**Аннотация.** В данной статье рассматриваются основные теоретические подходы к изучению проблемы социальной

стратификации и неравенства, а также трансформации взглядов на проблему в социально-философское мышление XXI века. В соответствии с рыночными отношениями в Узбекистане формируется новая социально-классовая структура. Большое внимание уделяется формированию среднего класса в этой системе. Социальная структура общества делится не только на социальные группы, классы, слои, прослойки, но и на другие социально-исторические единицы, включая процессы и взаимодействия между ними, об изменениях и последствиях их различных видов деятельности. - национальные, этнические и демографические группы. В статье анализируется влияние глобализации на социальную структуру общества, социальная стратификация, необходимость новых социальных ценностей и необходимость социального сотрудничества между слоями. Были сделаны предложения о статусе стратификации общества и среднего класса в разных странах, результатах определения среднего класса Узбекистана определенными способами и укреплении среднего класса как основы социальной стабильности.

**Ключевые слова:** глобализация, стратификация, цивилизация, критерии, общество, устойчивость, сотрудничество, солидарность, неравенство, класс, изменения, партнерство.

**Ключевые слова (2):** развитие общества, группы и прослойки, средний класс, социальная структура, средний класс, духовная жизнь, рыночная экономика, образ жизни.



**TA'LIM VA FAN FALSAFASI /  
ФИЛОСОФИЯ ОБРАЗОВАНИЯ И НАУКИ /  
PHILOSOPHY OF EDUCATION AND SCIENCE**



**УДК 167**

**http://dx.doi.org/10.26739/2181-9505-2020-8-4**

**Umirzakova Nargiza Akmalovna**

Toshkent davlat stomatologiya instituti  
Ijtimoiy fanlar kafedrasi katta o'qituvchisi  
(O'zbekiston, Toshkent sh.)  
E-mail: n.a.umirzakova@mail.ru

**BIOETIKANING PAYDO BO'LISHI, FAN SIFATIDA  
SHAKLLANISHI VA O'RGANADIGAN MUAMMOLARINING  
FALSAFIY-METODOLOGIK TAHLILI.**

**Annotatsiya:** Bugungi kunda biologiya fanlari va tibbiyot sohasida yuz berayotgan ilmiy-texnikaviy va texnologik kashfiyat va yutuqlarning tobora jamiyat hayotiga kirib kelishi natijasida, kishilik jamiyatida avval bo'limgan masala va muammolar kelib chiqdi. Insoniyat kelajagini xavfga qo'yayotgan kashfiyotlar tufayli, yangi fan – bioetikaga zaruriyat va ehtiyoj yuzaga keldi. Barcha tiriklikka, shu jumladan, inson sog'ligi va hayotiga qadriyat deb qarashga undaydigan bioetika fani falsafiy jihatdan tahlil etildi.

**Kalit so'zlar:** Bioetika, xavf, gen injeneriyasi, genom, biotexnologiyalar, insonparvarlashtirish, medikalizatsiya, embrion, insonparvarlik, qadriyat, tadqiqot.

**Kalit so'zlar (2):** Biotibbiy etika, tibbiy axloq, klon yaratish, bioetik dunyoqarash, shaxs avtonomiysi, "avtonom model".

### **KIRISH**

Bugungi kunda biologiya va tibbiy yo'nalishdagi fanlarning yutuqlari, shak-shubhasiz, jamiyat hayoti uchun muhim masala va muammolarni yechimini topishda, jumladan, oziq-ovqat va tibbiyot bilan bog'liq muammolarni hal etishda katta imkoniyatlarni yaratdi. Ammo bu yutuqlarni hayotda qo'llash natijasida kishilik jamiyatida

avval bo‘Imagan masala va muammolar kelib chiqdi, shu sababdan ularni axloqiy jihatdan o‘rganish bugungi kunda dolzarb masalaga aylandi. Insoniyat kelajagini xavfga qo‘yayotgan kashfiyotlar tufayli, yangi fan – bioetikaga zaruriyat va ehtiyoj yuzaga keldi. Bioetika falsafa va tibbiyotning qo‘shilishi natijasida yuzaga kelib, zamonaviy shifokorga hayot va mamot masalalarini hal qilish imkonini beradigan amaliy etikaga aylandi [Мухамедова, З.М. 2009: 6.14-15.].

Fan sohasi sifatida bioetika o‘zida sotsiologiya, psixologiya, ijtimoiy psixologiya, mantiq, huquqshunoslik, menejment, dinshunoslik, pedagogika hamda boshqa tibbiy va notibbiy fanlar yutuqlarini mujassamladi, amaliy tibbiyotning axloqiy muammolarini o‘rganishni maqsad deb belgiladi.

Bioetika o‘zida biologik va tibbiy bilimlarni umumbashariy qadriyatlar bilan uyg‘unlashtirib, inson hayoti va salomatligini o‘rganish doirasida inson xulq-atvorini axloqiy qadriyatlar va prinsiplar nuqtai nazaridan o‘rganadigan fanlararo yangi ilm sohasi sifatida rivojlandi.

Bioetika biotibbiyot fanlarining amaliyotga joriy etilishi va taraqqiyoti natijasida vujudga kelgan murakkab antropologik, ijtimoiy va axloqiy muammolarga javob sifatida, bugungi kunda paydo bo‘lgan nafaqat yangi ilmiy yo‘nalish, balki akademik fan hamda ijtimoiy institut sifatida shakllandi. [Мухамедова, З. М. 2006: 6.142 – 158.]

Bioetika shakllanishining sabablari kompleks xarakterga ega bo‘lib, ijtimoiy, axloqiy va biotibbiy muammolarning yaxlit birligini tashkil etadi va shu tufayli murakkabdir. Tibbiyot etikasiga yurtimizda uzoq vaqt mobaynida tibbiyot xodimining kundalik kasbiy faoliyatida amal qilishi lozim bo‘lgan axloqiy mezonlar majmui deb qarab kelindi. Ammo bugungi kunga kelib, vaziyat o‘zgardi, so‘nggi yillarda biotibbiy texnologiyalar juda katta yutuqlarga erishdi. Bunday texnologiyalar orasida gen injeneriyasi rivoji, inson va hayvonlar ustida tajriba o‘tkazish, klon yaratish, tirik donor va murdadan ajzo va to‘qimalarni ko‘chirib o‘tkazish, ksenotransplantatsiya, yangi reproduktiv texnologiyalar - sunjiy inseminatsiya, ekstrakorporal urug‘lantirish, surrogat onalik, abort, fetal davolash, reanimatsiya va eftanaziya kabilar ayni paytda bioetikaning eng muhim muammolari manbai bo‘lib qolayotir.

1990-yilda Strassburgda o‘tkazilgan bioetika masalalari bo‘yicha simpozium bergen tajrifga ko‘ra, bioetika – tibbiyot va biologiyaning rivojlanishiga qarab yuzaga keladigan axloqiy, huquqiy va ijtimoiy

muammolarni o‘rganuvchi bilim sohasidir. Boshqacha qilib aytganda, bu borliqqa axloqiy munosabat mezonlari to‘g‘risidagi fan, jamiyat manfaatlarini ilm-fan tajovuzidan himoya qiluvchi institut, shuningdek tibbiyot sohasidagi axloqiy muammolarni hal qilish metodologiyasidir. Bioetikaning asosiy maqsadi – inson, uning hayoti va sog‘lig‘iga tibbiyot va biologyaning salbiy tajsiridan himoya qilish hisoblanadi. Shu sababdan bioetik masalalarni falsafiy dunyoqarash orqali o‘rganish va metodologik tahlil qilish muhim ahamiyat kasb etadi.

## **MATERIALLAR VA METODLAR**

Bioetika sohalararo fan sifatida o‘zida sotsiologiya, psixologiya, ijtimoiy psixologiya, mantiq, huquqshunoslik, menejment, dinshunoslik, pedagogika hamda boshqa tibbiy va notibbiy fanlar yutuqlarini jamlaydi, amaliy tibbiyotning axloqiy muammolarini o‘rganadi. Bioetikani yuzaga kelishi va fan sifatida shaklanishi sabablari va shart-sharoitlari bilan bog‘liq masalalarni o‘rganish jarayonida manbalarni o‘rganish, tarixiy va qiyosiy tahlil, analiz, sintez, umumlashtirish kabi usul va uslublaridan foydalanildi.

## **MUHOKAMA VA NATIJALAR**

Bioetikani yuzaga kelishi va fan sifatida shaklanishida quyidagi shart-sharoitlar bilan bog‘liq sabablarni ajratib ko‘rsatish mumkin:

XX asrning ikkinchi yarmi – XXI asrning boshlarida biologiya fanining erishgan yutuqlari: DNK strukturasining kashf etilishi (1953); Dolly qo‘zichog‘ini klonlash (1996); prionni aniqlash (1997); inson DNKhining to‘liq ketma-ketligi loyihasi nashri (2000); bir guruh amerikalik biologlar tomonidan tabiiy o‘xshashligi bo‘Imagan DNKda sunjiy oqsillar yaratish (2011). Gen injeneriyasi va neyrofarmakologiya umrni uzaytirishga qaratilgan “kelajakka yo‘l” sifatida baholanib, katta ahamiyatga ega soha sifatida ejtirof etilyapti, chunki ular “inson tabiatini tubdan o‘zgartirishi mumkin” [Фукуяма, Ф. 2004: б. 13].

Irsiy kasallikkarni tuzatish uchun genlarni “almashtirish” usullari, kichik RNKharni nanozarrachalarga o‘tkazish orqali saraton kasalligini davolash texnologiyalarini rivojlantirish bo‘yicha “The Autism Genome Project” loyihasi tomonidan o‘tkazilayotgan tadqiqotlarni alohida tajkidlash kerak. [Петров, В. И. & Седова, Н. И. 2002: б.12.].

Hozirgi vaqtida ko‘p kasallikkarning genetik sabablari aniqlandi. Bunday vaziyatda biologiya va biotibbiyot yutuqlari zamonaviy

texnologiyalar asrida yuzaga kelayotgan tahdid va xavf-xatarlardan ximoya qilishning o‘ziga xos mexanizmiga aylanishi bilan bir qatorda, yangi xavf-xatarlarni ham keltirib chiqarishi mumkin.

XX asrning 70-80 yillaridan boshlab fanlararo tadqiqotlarning olib borilishi va jadal rivojlantirilishi fenomeni yuz berdi. Bu o‘z navbatida, ijtimoiy, psixologik, yoshga doir va antropologiyaning boshqa shakllarini rivojlanishida aksini topdi va bioetika rivojlandi. A. Xellegersning fikricha, falsafa, tibbiyat va etika birlashsagina bioetika mazmunga ega bo‘ladi.

A. Xellegers birinchilardan universitet muxitiga “bioetika” atamasini olib kirdi va joriy qildi, akademik fan sifatida tarkibiy tuzilmasini ishlab chiqdi, biotibbiy fanlar, siyosat sohalariga kiritdi va ommaviy axborot vositalariga bioetikani tanitish uchun katta hissa qo‘shti [Уоррен, Т. Рэйч. 1995: б. 19-34].

Hozirda bir qancha mamlakatlar universitet va institutlari tibbiyat va falsafa fakultetlarida bioetika fan sifatida joriy qilingan. 2000-yildan boshlab dastlab Rossiya, keyin Belorusiya, Ukraina Respublikalari institutlarida tibbiy tajlimning zaruriy qismi sifatida o‘rganilmoqda.

Ilm-fanning rivojlanishi tabiatи tubdan o‘zgardi, yajni nazariy yutuq va kashfiyotlar qisqa vaqt ichida yangi texnologiyalar ko‘rinishida amaliyotga joriy qilinyapti, chunki bu tadqiqot va ilmiy izlanishlar turli tashkilotlar tomonidan moliyalashtiriladi va ular tomonidan natijalarning samaradorligi kutiladi. Buning yaqqol misoli sifatida 80-yillarning o‘rtalarida gen injeneriyasi usullari yordamida interferonni yaratilishini keltirish mumkin. Bu ixtiro tufayli biologik mahsulotlarni yaratilishida yangi bosqich boshlandi. Keyinchalik hujayralarda interferon genlarining tuzilishi, turli hil patologiyalarni yuzaga kelishida interferonning tutgan o‘rni o‘rganildi. Umuman olganda, insoniyat oldida turgan global muammolar (aholi sog‘ligini saqlash, demografiya, oziq-ovqat, ekologiya va hokazo muammolar)ni hal etishda biologiya fanlari sohasidagi ilmiy yutuqlar katta imkoniyatlarni yaratayotganini doimo nazarda tutish muhim sanaladi.

Yangi texnologiyalarning nafaqat insonlarga, balki kelgusida jamiyat hayotidagi munosabatlarga ulkan tajsirini anglash. Bu esa yangi texnologiyalarning ishlab chiqarishga qaratilgan loyihamlar tadqiqotlarini ijtimoiy, gumanitar, antropologik ekspertizalarini o‘tkazish zaruriyatini taqozo etadi. G. A. Tulchinskiy tajkidlashicha, “ekspert xulosalarida dalillar, izoh va mulohazalar, tushuntirishlar mavjud bo‘lib, isbotlar oqilona, intersubyektiv shaklda, yajni barcha uchun

tushunarli tarzda kiritilishi kerak” [Петров, В. И. & Седова, Н. 2002: б. 12.]

Bunda ekspert xulosalariga qo‘yiladigan talablar qonunda belgilangan (Rossiya Federatsiyasi Jinoiy-Protsessual kodeksi 204-moddasi).

Jamiyatda qadriyat va dunyoqarashlarni sezilarli darajada o‘zgarishi. Tajkidlash kerakki, bioetikani va unga nisbatan munosabatlarni shakllanishiga majlum madaniyatlarning ustuvor qadriyatlari tajsir qildi. bioetikani Shimoliy Amerikada paydo bo‘lishi tasodif emas, deb qaraladi. Individ avtonomiyasiga hurmat, o‘z taqdirini o‘zi belgilashi, haq-huquqlari – AQSHda markaziy o‘rinni egallaydigan qadriyat hisoblanadi. Har bir inson o‘z hayoti va sog‘lig‘iga oid masalalarda o‘zi mustaqil qaror qabul qilishdan manfaatdor bo‘libgina qolmasdan, shu jumladan tibbiy davo choralarni tanlashda ham, balki ushbu qaror shifokor tomonidan ham hurmat qilinishi talab etiladi. “Shaxs o‘z taqdirini o‘zi belgilashi–bu butun Amerika hayotining eng muhim qadriyatidir, va tibbiy xizmatlar bundan mustasno emas” [Уиклер, Д. 1989: б. 62.], - deb D. Uikler o‘zining ocherkida AQSHda bioetikaning holati to‘g‘risida shunday fikrni bildiradi. Shaxs avtonomiyasini bu darajada yuqori baholash, albatta, bioetik tadqiqotlarning rivojlantirishga asos bo‘ldi.

Boshqa tomondan esa, jamiyatda bugungi kunda antissiyentik kayfiyatlar hukmron. P.D.Tishyenkoning tajkidlashicha, - “bioetikaning paydo bo‘lishi qadriyatlar olamining detsentralizatsiya davriga to‘g‘ri keldi, yajni bu davrda dunyoqarash muammolarini hal etishda fanning obro‘sisi yo‘qolayotgan edi... XX asrning o‘rtalariga kelib, mafkuraviy va g‘oyaviy yondashilgan ilmni (tabiiy) ratsionallik asosida olib borilishi oqibatida, fan haqiqatni yolg‘ondan farqlash vakolatidan va huquqidan mahrum bo‘ldi” [Тищенко, П. Д. 2006: б. 30].

Boshqacha aytganda, shunday payt keldiki, Xudoga ishonch yo‘qolgan, ammo shu bilan birga, ilm-fan yutuqlari haqiqiy tahdid sifatida qabul qilinyapti va unga avvalgidek ishonch yo‘q.

Shu munosabat bilan, ko‘plab tadqiqotchilar bioetikaga bo‘lgan munosabatni insonning fan va texnologiyalarning xavf-xatarlaridan qo‘rqish natijasida paydo bo‘lgan deb tavsiflaydilar, chunki “yangi biotexnologiyalar bemorlarning hayoti, shajni va qadr-qimmatiga yangi ekzistensional tahdidni keltirib chiqardi” [Пустовит, С. В. 2009: б. 77], deb tajkidlaydilar. Bularning barchasi, insonning o‘zini-o‘zi anglashida murakkab axloqiy muammolar borligini ko‘rsatib berdi.

Tibbiyot Fanlari Akademiyasining Forumida britaniyalik tadqiqotchilar “insonga juda o‘xhash” hayvonlarni yaratish bo‘yicha eksperimentlarga qatijiq taqiq joriy qilishni taklif qilmoqdalar. Bunda ular odam va hayvonlar o‘rtasidagi chegaralarni yo‘qolishi mumkinligi va natijada birga yashash xavotiri paydo bo‘lishini ejtirof etdilar. Gap shundaki, gen injeneriyasi usullari yordamida genetik turlar o‘rtasidagi to‘silqlar olib tashlanishi mumkin. “Ammo biz Pandoraning qutisini ochmayapmizmi? Biz hayvonlarda uchraydigan kasalliklarni insoniyatga o‘tishiga yo‘l ochmayapmizmi?” [<http://podrobnosti.ua/862330-uchenye-issledujut-vozmozhnost-peresadki-organov-zhivotnyh-cheloveku.html>].

Shu nuqtai nazardan, amerikalik onkolog vrach Van Ranseller Potter bioetika fanining shakllanishini quyidagicha tavsiflaydi: “Bu ilmiy va ijtimoiy taraqqiyot oldida xavotir va jiddiy tashvish tufayli paydo bo‘ldi” [Поттер Ванн Р. 2002: 6. 216].

Shu asosda V.R.Potter inson salomatligini saqlash muammolarini samarali hal qilish uchun biologik va gumanitar fanlarni sajy-harakatlarini birlashtirish kerak deb hisoblaydi. Yajni, uning fikriga ko‘ra, bioetika muammolarini tadqiq va tahlil etish butun insoniyatni yashab qolishi, va keng majnoda, Yerdagi hayotni saqlab qolish uchun zarurdir.

Yuqorida keltirilgan qarashlardan kelib chiqadiki, biologik tadqiqotlar natijalarini kasalliklarga qarshi kurashish, odamlarning sog‘ligini yaxshilash maqsadida, hamda insonning genetik apparatiga aralashishni o‘z ichiga oladigan tahdidlarni qo‘llash o‘rtasidagi ziddiyatlar va farqlarni anglab ajratish uchun, bioetikani dunyoqarash sifatida shakllanishida muhim omillar hisoblanadi. Bioetika fanining fanlararo soha sifatida rivojlanishi bir qator metodologik masalalarni, shu jumladan, fan sifatida uning predmeti masalasini hal qilishni taqazo etadi. Bu masalani ham hal etishda yakdillikka erishilmagan.

Bioetikaga oid yondashuvlardan eng namunalilarini keltirish joiz:

1978-yilda chop etilgan Bioetika ensiklopediyasida “Bioetika axloqiyqadriyatlar vaprinsi plarga asoslangan hayot vasog‘liqni saqlash fanlarida inson xulqining tizimli tadqiqoti” [Энциклопедия биоэтики. 1978: б. 19.], deb tajrif keltirilgan. Ammo, shu ensiklopediyaning 1995-yildagi qayta nashrida bioetika mavzusи “axloqiy parametrlar, jumladan, axloqiy baho, qarorlar, xulq-atvor va oriyentirlarni hayot to‘g‘risidagi fanlar ko‘rsatmalariga va tibbiyotga fanlararo turli xil axloqiy

metodologiyalarning jalb qilinishini tizimli tadqiq etadigan fan sohasi” [Энциклопедия биоэтики Уоррена Т. Рэйч. 1995: б. 21.], deb tajrif berilgan.

Shunday qilib, 20 yil ichida bioetika mavzusini talqin etishda bir qancha o‘zgarishlar bo‘ldi. Ularning mohiyati “axloqiy parametrlar”ni bat afsil o‘rganish bilan bir qatorda, fanlararo bog‘liqlikda insonni o‘rganishga va uning sog‘ligini tuzatishga qaratilgan fanlar doirasini kengaytirishdan iborat bo‘ldi. Amerikalik tadqiqotchilar T. Bichamp i Dj. Childres uchun “bioetika bu terapeutik amaliyot, tibbiy yordam, tibbiy va biologik tadqiqotlar muammolarini hal etishda umumiyligi axloqiy nazariyalar, prinsiplar va qoidalarni qo‘llashdir” [Бичамп, Т. Л. & Чайлдрес, Дж. Ф. 1994: 6.546].

Ushbu tajrifda bioetikaning tarkibida axloqiylik qismi hal qiluvchi ahamiyatga egaligi, bundan tashqari, aynan shu axloqiylik qismi birinchi navbatda amaliy tibbiyotda qo‘llanilishiga ejtibor qaratilgan.

Shuningdek, Rossiya Federatsiyasi ilmiy adabiyotlarida tahlil qilinayotgan masala bo‘yicha turli nuqtai nazarlar bildirilgan. I. V. Siluyanovaning fikricha, “bioetika anjanaviy kasbiy biotibbiy etikaning zamonaviy shakli bo‘lib, unda insoniy munosabatlarni tartibga solish insoniyat hayotini saqlab qolishdek buyuk vazifaga bo‘ysinadi” [Силуянова, И. В. 2001: 6.19].

Muallifning bioetika tibbiy etika rivojlanishining natijasidir degan fikrdan kelib chiqadi va u o‘z ejtiborini turli kasallikkarga chalingan insonlarni tibbiy muammolarini hal etishga, yoki hatto sog‘ligini yaxshilashga ham emas, balki keng diapazondagi masala – inson zotini omon qolishiga qaratgan.

S. V. Pustovit fikriga ko‘ra, “bioetika –fanlararo bilim sohasi va insoniy amaliyot sohasi bo‘lib, uning maqsadi - axloqiy mexanizm va prinsiplar yordamida hayotni saqlash va rivojlantirishdir” [Пустовит, С. В. 2009: б. 77.].

Bu tajrifda bioetikaning nafaqat nazariy va amaliy yo‘naltirilganligi va vazifalari, balki axloqiy qadriyatlar hayotni saqlab qolish mexanizmi sifatida tajkidlanadi.

Yuqorida ko‘rib chiqilgan tajriflarning umumiy jihatlari quyidagilardan iborat:

1) bioetikaning maqsadi - davolash usullari va odamlar sog‘ligini yaxshilash;

2) tibbiy va biologik tadqiqotlarning axloqiylik qismiga (qadriyatlar asosida)ga ejtibor qaratadi;

3) bioetika falsafa, tibbiyat, biologiya va inson haqidagi barcha fanlar bilimlari integratsiyasi asosida fanlararo bilim sohasini tashkil etadi;

Bundan tashqari, ushbu tajriflar tahlili shuni ko'rsatadiki, "biotibbiy etika" va "bioetika" atamalari majlum darajada yaqin hisoblanadi.

Bizning fikrimizga ko'ra, bioetika fanining doirasi biotibbiy etika sohasiga (o'z ichiga asosan shifokor-bemor munosabatlarining axloqiy muammolari, tibbiy burch va vazifalarni bajarish va boshqalarni oladi) nisbatan torroqdir.

"Bioetika fanlararo bilimlar sohasi bo'lib, tibbiy, biologik fanlarning jadal rivojlanishi va ularni sog'liqni saqlash va yuqori texnologiyalar sohasiga joriy etish oqibatida paydo bo'Igan falsafiy va axloqiy muammolarni keng doirasini o'z ichiga qamrab oladi" [Тищенко, П. Д. 2001: б. 39], deb D Tishyenko tomonidan taklif qilingan tajrif ham diqqatga sazovordir.

Ushbu tajrifda bioetika fanining maqsadli yo'nalishlari, unda axloqiylik tamoyilining roli va ushbu bilim sohasining o'zaro bog'liqligi lo'nda keltirilgan. Bundan tashqari, ushbu tajrif bioetika o'rganadigan masalalar aniq falsafiy masalalar ekanligini tajkidlaydi.

Bioetika shakllanayotgan jarayonda, inson va uning sog'ligiga nisbatan biotexnologiyalarni qo'llash nafaqat axloqiy, balki huquqiy tartibga solish zarurligi ham aniqlandi. 1964-yilda Butunjahon Tibbiyat Assotsiatsiyasi tomonidan Xelsinki deklaratsiyasi qabul qilindi, unda biotibbiyot tadqiqotlari bo'yicha qoidalar va tajqiqlar belgilab berildi. Keyinchalik ushbu deklaratsiya to'ldirildi va unga aniqliklar kiritildi. Bioetik masalalarni hal etish bo'yicha yetakchi sanalgan bir qator mamlakatlarda tadqiqotlar ustidan nazorat o'rnatish uchun milliy tashkilotlar tuzildi. Shulardan yetakchi hisoblangan Rossiya Federatsiyasi Rossiya Fanlar Akademiyasida Bioetika bo'yicha Rossiya milliy qo'mitasi 1992-yil tashkil etildi. 2011-yilda esa unga YUNESKO ishlari bo'yicha RF komissiyasining bioetika bo'yicha Rossiya qo'mitasi maqomi berildi. 1993-yil "Fuqarolarning sog'ligini saqlash to'g'risida Rossiya Federatsiyasi Qonuni" qabul qilindi. Mazkur qonunning 16 muddasi axloqiy masalalarni hal qilishga oid komissiya tuzishda huquqiy baza yaratish uchun asos vazifasini bajardi.

1997-yilda "Biotibbiyotda inson huquqlari Yevropa Kengashi Konvensiyasi" ejlon qilindi. Bu shuni anglatadiki, biotibbiy tadqiqotlarning axloqiy monitoringini o'tkazish ushbu konvensiyani ratifikatsiya qilgan davlatlar uchun majburiy bo'Igan qonunga aylandi.

Bioetik ekspertizalar mustaqil qo'mitalar tomonidan amalga oshiriladi (dastlab AQSHda, keyin boshqa mamlakatlarda tashkil etilgan).

YUNESKO Bosh konferensiyasining 29-sessiyasida 1997-yilda "Inson genomi va inson huquqlari to'g'risida Umumjahon deklaratsiyasi"ning qabul qilinishi alohida ahamiyat kasb etdi. O'rganilayotgan mavzuni mohiyatini ochishda ushbu hujjatning bajzi moddalarini keltirish o'rinnlidir.

Deklaratsiyaning birinchi qismi "Inson qadr-qimmati va inson genomi" deb nomlangan bo'lib, unda "Inson genomi inson zotining barcha namoyondalarining azaliy asl birligini, shuningdek, ularning ajralmas qadr-qimmati va turli xilligini tan olishni anglatadi. Inson genomi insoniyat merosi hisoblanadi" [Inson genomi va inson huquqlari to'g'risida Umumjahon deklaratsiyasi.]. Butun dunyodagi barcha odamlarning tengligi haqida ejtirof - ushbu moddaning falsafiy hamda ijtimoiy mazmunini tashkil etadi. Darhaqiqat, barcha irqlar, hamma xalqlar, bir genga ega bo'lib, Ular "nasldan naslga o'tib, cheksiz xilma-xillikni shakllantirgan" [Петров, В. И. & Седова, Н. И. 2002: б. 12]. Ushbu genlar (allellar)ning son-sanoqsiz kombinatsiyalari insoniyatning xilma-xilligini vujudga keltirgan. Shuning uchun nafaqat insoniyat genofondi, balki har bir insonning genomi alohida ahamiyatga ega qadriyat hisoblanadi. Shu bilan birga, deklaratsiyaning 4-moddasiga ko'ra, "Inson genomi tabiiy holati daromad olish manbaiga aylanishi mumkin emas" [URL: <http://www.newsru.com/russia/26feb2010/noclones.html>]. Boshqacha qilib aytganda, inson genomini o'rganish va olingan natijalardan foydalanish faqat insonparvarlik maqsadlari bilan belgilanishi kerak.

Bundan tashqari, Deklaratsiyaning "Tegishli shaxslar huquqlari" bo'limida "Ilmiy yoki boshqa turli maqsadlar uchun aniqlanishi mumkin bo'lgan insonga oid, saqlanayotgan yoki o'rganilayotgan shaxsga tegishli bo'lgan genetik majlumotlar maxfiyligi qonun bilan himoyalanishi kerak," –deb alohida belgilangan [Энциклопедия биоэтики. 1978: б. 19]. Bu shuni ko'rsatadiki, anjanaviy "tibbiy sirlar" va tibbiy majlumotlarning maxfiyligiga yana bir mutlaqo yangi jihat - konkret bir odamning genomiga oid majlumotlarning maxfiyligi jihat bilan to'ldiriladi.

"Inson genomiga oid tadqiqotlar" bo'limida o'rganilayotgan odamning huquqlari qayd etilgan: "Inson genomiga oid har qanday tadqiqotlar, shu jumladan, mazkur sohadagi amaliy tadqiqotlar ham,... inson huquqlari, asosiy erkinliklari va inson qadr-qimmatini hurmat qilishdan ustun bo'lmasligi kerak. Inson qadr-qimmatiga zid bo'lgan

amaliyotga, masalan, inson zotini ko‘paytirish maqsadida klon yaratish amaliyotiga yo‘l qo‘yilmaydi”. Yajni, har qanday tadqiqotlar, ular qanday natijalar berishidan qatjiy nazar, insonning qadr-qimmati, huquq va erkinliklariga rioya qilishdan ustun bo‘la olmaydi.

3. O'rta asr musulmon xalqlari falsafasida borliq muammosining adabiyotlarda, masalan, o'z paytida jiddiy tadqiqot deb hisoblangan G.Leyning "Очерки истории средневекового материализма" (1962) asarida ulardagi konseptual yondashish o'sha o'zimizga ma'lum "materializm va idealizm" qarama - qarshiligi shaklida, vulgar metodologiya aqidalari ruhida talqin etib berilganligi yomon pand bergen edi. [Ley, German. 1962: b.588.] G.Leyning bunday talqini uning keyin nashr etilgan tadqiqotida [Ley, German. 1966. b. 1-2.] bir muncha yumshatilgan bo'lsa-da, bari-bir o'zining asosiy va yetakchi vulgar metodologiya aqidalari ruhidagi talqini, mazmunini saqlab qolgan bo'lib, bu hamon ayniqsa yot, jiddiy falsafiy - tarixiy tadqiqot metodlarini egallab ulgurmagan, tajribasiz yoki tadqiqotchilarni chalg'ituvchi rol o'ynashni davom ettirmoqda.

O'rta asr musulmon xalqlari falsafasidagi barcha diniy - falsafiy oqimlar orasida mashshoiyun-peripatetiklar, akademik M.M.

Xayrullayev iborasiga ko'ra esa - "Sharq arastuchilari" [Xayrullayev, M. 1971: b. 310] va tabiyyun-demokritchi oqimi yetakchi bo'lganligi tarixchilar Ibn an-Nadim, Ashariy, Moturidiy, Shaxrastoniy, Bayhaqiy, Shaxrizuriy va boshqalar tomonidan, shuningdek hozirgi zamon xorijiy Sharq va G'arbdagi tadqiqotchilar asarlarida ta'kidlanadi. Mavjud O'rta asr Sharq falsafasi tadqiqotchilar izlanishlarida yuqoridagi ikki oqim nafaqat yetakchi yo'nalishlar sifatida, balki qadimgi yunon ilm-fani, falsafasining musulmon jamiyatida ma'lum va mashhur bo'lgan asosiy oqim, falsafiy maktablari sifatida ko'rsatiladi.

Holbuki, birgina Ibn an-Nodim "Fixristi" [Polosin, V. 1989: b. 260] yoki Abu Nasr al-Forobiyning "Falsafani o'rganishga kirishishdan oldin nimani bilish kerakligi haqida" [ Forobiy. 1975: b. 1-14.] va Beruniyning Roziy va o'z asarlari bibliografiyasini o'z ichiga olgan "Fexresti" (Abu Rayxon Beruniyning o'z asarlariga o'zi tuzgan ro'yxati)lari mazmuni tadqiq etilsa, o'rta asr musulmon Sharq xalqlari ilm-fani, falsafasi vakillarining qadimgi yunon falsafasining barcha asosiy va mashhur 10-12 tadan ortiq falsafiy maktab, oqimlari to'g'risida juda yaxshi, mufassal, aniq, hatto maxsus ma'lumotlarga ega bo'lganliklari, ular o'rtasidagi chuqur konseptual farqlar, o'ziga xosliklarni yaxshi bilganliklariga amin bo'lish mumkin. Ayniqsa, Forobiyning qadimgi yunon falsafasida mavjud bo'lgan maktab, oqimlarni tadqiq etishi, ularning maqsad, usul va muammolari bo'yicha maxsus ta'rif va xulosalari yoki Beruniyning o'z asarlarida, ayniqsa Roziy va o'z asarlari bibliografik "Fexresti"da hamda Shayx-ur-Rais Ibn Sino bilan maktublar vositasida bo'lib o'tgan mashhur falsafiy bahs - munozaralarida Aristotel naturfalsafasining ojiz, munozarali o'rinalarini ko'rsatishi, qadimgi yunon falsafasidagi unga muxolif maktab, oqimlar vakillari - demokritchilar, skeptiklar, stoiklar, dialektiklar (Geraklit, Zenon izdoshlari) bildirgan e'tiroz, dalillariga ishora, havola qilishi ham o'rta asr musulmon jamiyatida faylasuflarning qadimgi yunon ilm-fani, falsafasining butun boyligi, oqim, muktab, muammolaridan juda yaxshi xabardor bo'lganliklarini tasdiqlaydi [Rasulov, A. & Abdurahmonov, M. 1956.].

Shuning uchun ham endilikda falsafa, xususan o'rta asr musulmon xalqlari falsafasi tarixi tadqiqotchilar bu jahon falsafasining mislsiz, nodir "Oltin davri"ni faqat arastuchilik peripatetikchilik nuqtai-nazaridangina emas, balki undagi boshqa yetakchi oqimlar, Geraklit, Demokrit, Ksenofant, Anaksagor, Empedokl, Parmenid, Zenon va, umuman, eleyliklar, stoiklar, skeptiklar nuqtai-nazaridan ham o'rganish, tahlil etish, xulosalar chiqarish payti keldi, deb o'ylaymiz. Bu ayniqsa, borliq muammosining qanday o'rtaga qo'yilganligi, bu muammo

yuzasidan umuman jahon ilm - fani, falsafasi taraqqiyoti nuqtai - nazaridan ham diqqatga sazovor o'ta jiddiy, salmoqli va yuksak saviyadagi bahs - munozaralar bo'lib o'tganligini, talqinlar ilgari surilganligini ta'kidlash lozim. Biroq, bizningcha, aynan arastuchilik an'anasisiga bo'lган ustuvor qiziqish, diqqat qilish boshqa qadimgi yunon falsafasi maktablari, oqimlariga oid manbalarni qidirib topish, tarjima qilish va tadqiq etishning o'lda-jo'lda bo'lib qolishiga olib kelgan. Bunday manbalarning mutlaq ko'pchiligi noma'lumligicha qolmoqda, ularni falsafiy tadqiq etish borasida izlanishlar bizda endi amalga oshirila boshlanganini taassuflar bilan qayd qilishga to'g'ri keladi.

Keyingi paytda falsafiy merosimizga yangicha yondashuv asosida olib borilgan tadqiqotlarda Yaqin va O'rta Sharqda borliq to'g'risidagi qarashlar haqida gapirilganda, ularga antik falsafadagi atomistik nazariyaning ta'sirini ko'rsatish zarurligi ta'kidlanadi. [ Классическая наука в Центральной Азии и современная цивилизация. 2000: б. 416]. Bu xulosani to'g'ri deb hisoblaymiz. Uning to'g'riliqini O'rta asr Sharqidagi juda ko'p ta'limotlar, oqimlar, shu jumladan, diniy-falsafiy nazariyalar tasdiqlaydi. Xususan, borliqdagi barcha narsalar Allah qudrati ila atomlar(substratlar) va aksidensiyalar (xususiyatlar, munosabatlar)dan tashkil topgan degan fikrni mu'taziliylar, mutakallimlarning ko'pchiligi qo'llab-quvvatlaganlar va, hatto, mu'taziliylar "atomlar va aksidensiyaning imkoniy metafizikasini (ilohiyotini) bayon qilganlar" [ Nosirov, R.N. &, Sirojiddinov, Sh.S. & Ziyautdinova, X.A. 2007: б. 17] Bunda atomlar tabiat jismlarini, aksidensiyalar-ularning sifatini ifoda etuvchi tushunchalar tarzida talqin qilingan.

Tadqiqotlar shuni ko'rsatadiki, IX asrga kelib borliqning yaratilishi va tuzilishi, unda atomlar (substratlar) va aksidensiyalarning o'zaro munosabati to'g'risida bir qancha qarashlar mavjud bo'lган. Ulardan biri VIII asrda yashab o'tgan Ziraf ibn Amrga tegishlidir. Unga ko'ra borliq atomlar va aksidensiyalardan iborat bo'lib, bunda aksidensiyalar hal qiluvchi ahamiyatga ega, ya'ni tabiat jismlarining mavjudligi aksidensiyalarda o'z ifodasini topadi, ular bo'lmasa jismlar ham bo'lmaydi. U hissiy qabul qilinadigan predmetlar mustaqil emas, ularning o'zgarishi, harakati aksidensiyalarga bog'liq, aksidensiyalardan biri yoki bir nechta o'rin almashsa, jismlar ham o'zgaradi, degan xulosaga kelgan.

Ikkinchi qarash unga teskari bo'lib, uning tarafdarlari moddiy olamning mavjudligi ko'proq aksidensiyalarga emas, balki substratlarga, ya'ni atomlarga bog'liq, chunki jismlar atomlardan tashkil topgan

deyishgan. Ular qatorida Xishom ibn Al-Hakim, al-Asam, Nazzomlar bo'lган. Nazzom fikricha, moddiy jismlar doimiy o'zgarishda bo'lib, uning sababi jismlarning hamisha aralash holatda bo'lishi, ya'ni birining ikkinchisi tarkibida bo'lib, o'zaro bog'liq holda mavjudligidadir. Fizik jarayonlar o'zgarganda, ichidagilari namoyon bo'ladi. Buni Nazzom quyidagi misol yordamida tushuntirgan: jism yonganda, olov ajralib chiqadi, olovda yashirin holatda bo'lган sifatlar - issiqlik va yorug'lik seziladi. Xuddi shu singari, butun borliq jismlar bilan to'la bo'lib, ular tabiiy jarayonlar o'zgarishida turli darajada namoyon bo'ladi va seziladi.

Uchinchi qarashga muvofiq, jismlar ham, aksidensiyalar ham borliqning tarkibiy qismlari hisoblanib, ularning asosini bo'linmas elementlar tashkil etadi. Bu mulohaza islom ilohiyotchiligidagi atomizm g'oyasi sifatida mashhurdir [Nosirov, R. & Sirojiddinov, Sh, & Ziyautdinova, X. 2007: b. 20-22.]

Atomistik qarashlarni IX asrda yashab, ijod qilgan Mu'ammar, Bishr ibn Al-Mu'tamirlar ilgari surishgan. Atomistik g'oyani rivojlantirganlar qatorida Zakariyo ar-Roziy ham bo'lган. [Ashurov, G. 1965: b. 101-102]

Mustaqillik davrida bu yo'nalishdagi izlanishlardan yana biri B.O.To'raevning monografiyasida aks etgan. Unda o'rta asr musulmon xalqlari falsafasi, fani tarixida borliq, uning mavjudlik shakllari muammozi bo'yicha, garchi birlamchi manbalar yetarli foydalanimagan bo'lsada, asosiy qarashlar-substansional va relyatsion konsepsiylar mavjud bo'lganligi, ularning mohiyati, funksional farqlari, o'zaro munosabati tadqiq etilib, ba'zi umumlashtiruvchi xulosalar berilgan. "Fazo va vaqt haqidagi tasavurlarni o'rganar ekanmiz, mavjud fazo va vaqtning u yoki bu belgilariga asoslanuvchi ikki o'zaro qarama-qarshi konsepsiyalarni ko'rish mumkin. - deb yozadi B.O.To'raev, - Ulardan biri fazo va vaqt deganda faqat (ularning) mutlaq, o'zgarmas, barqaror belgi, xossalari, tomonlarini tushunsa, ikkinchisi esa, ularning (ya'ni fazo va vaqtning - R.U.) nisbiy, doimiy o'zgarib turuvchi tasvirini ko'rish, shakllantirishga urinib kelgan. Bu o'zaro qarama-qarshi konsepsiylar - substansional va relyatsion konsepsiyalardir" [To'rayev, B.O. 1992: b. 7]. Biz bu yerda substansional va relyatsion konsepsiyalarning ontologiyada fazo va vaqt muammofiga oid ekanligini inobatga olgan holda va ayni paytda, fazo va vaqtning moddiy olamning mavjudlik shakllari ekanligini nazarda tutib, mazkur konsepsiyalarni borliq haqidagi tasavurlarni, ta'limotlarni tasniflashga qo'llasa bo'ladi deb hisoblaymiz.

Substansional konsepsiya vakillarining asosiy aqidalari quyidagicha: "fazo materiyaga va moddiy o'zaro ta'sirlarga bog'liq

bo'limgan holda, materianing mavjudlik sharti (shakli)dir; u - mutlaq xarakterga ega (substansiya). Vaqt esa nomoddiy substansiya bo'lib, o'zaro zich, fazo, materiya va harakatga bog'liq bo'limgan holda (alohida) mavjud; u borliq, fazo va harakatning mavjudligiga hal qiluvchi, asosli ta'sir ko'rsatadi; zamoniy munosabatlar mutlaq xarakter kasb etib, har qanday hisob tizimlarida bir xildirlar (Demokrit - Nyuton konsepsiysi)". [To'raev, B. 1992: b. 6]

Qadimgi yunon falsafasida Demokrit, Gippokrat, Galen kabi mutafakkirlarning tabiatshunoslik bilan chuqur bog'liq bo'lgan bu naturfalsafiy qarashlari keyinchalik o'rta asrlardagi musulmon falsafasida tabiyun oqimi an'analari sifatida yuzaga chiqqan. Bu oqimning asosiy vakillari Jobir ibn Xayyon, Muhammad Eronshaxriy [Sarton, G.S. 1927: b. 622-630], Zakariyo ar-Roziy [Karimov, U. 1957.] , Beruniy, Abu-l-Barakot al-Bag'dodiy va boshqa buyuk tabiatshunos, naturfaylasuflar bo'lishgan. Bu haqda quyida bir munkha batafsil to'xtalib o'tamiz.

Ikkinchi oqim borliq, uning mavjudlik shakllari haqidagi relyatsion konsepsiadir. Relyatsion konsepsiya asoschilari Aristotel va uning maktabi vakillari hisoblanadi. Uning o'rta asr musulmon falsafasidagi izdoshlari, davomchilari - Kindiy, Forobiy, Ibn Miskavayh, Ibn Sino, Umar Hayyom va boshqa mutafakkirlar ham shu konsepsiyanı e'tirof etadilar.

"Relyatsion konsepsiya vakillari fazoni moddiy dunyoning tarkiblangan tizimi deb, narsa, jism tomonidan egallanadigan joy deb qarashadi va uni "ham mavjudlik, yoki bir vaqtida mavjud bo'lish tartibi" (tizimi) deb ataydilar. U (ya'ni - fazo) tamomila moddiy tizimlarga ega va ularning harakati bilan bog'liq tarzda mavjud bo'ladi, ya'ni, unisbiy, o'zgaruvchandir. Vaqt esa moddiy tizimlar va hodisalarining (narsalar ketma-ketligi, tartibining) o'zaro ta'siri va o'zgarishlari oqibatidir. Fazo va vaqt, relyatsion konsepsiya ko'ra, nisbiy xarakterga ega". [To'raev, B. 1992: b. 21-23]

Shunisi diqqatga sazovorki, har ikki konsepsiya vakillari o'rtasida borliq, uning mohiyati, taraqqiyoti, mavjudlik usuli va shakllari yoki atributlari muammolari yuzasidan o'ta qadim zamonalardan boshlab, butun o'rta asrlar-u, Uyg'onish va Yangi davrlardan, to XX asrlargacha qizg'in, keng ko'lamli bahs-munozaralar davom etgan va relyatsion konsepsiya faqat relyativistik fizika, kvant mexanikasi, nisbiylik nazariyasi vujudga kelgan XIX asr oxiri - XX asr davomida ko'proq tan olina boshladi, degan xulosani aytish mumkin. Biroq, bu hali relyatsion konsepsiyaning uzil-kesil g'alabasi degani emas. Zero, substansial konsepsiyaning yana o'zini ko'rsatishi mumkinligi to'g'risida hozirgi kvant fizikasida, umuman tabiatshunoslikda ishora, gi potezalar

anchagina mavjud. [To'raev, B. 1992: b. 22-23] Demak, borliq, uning mohiyati, taraqqiyoti, mavjudlik usuli va shakllari yoki atributlari haqidagi ilmiy-falsafiy bahs-munozaralar davom etishi kutilmoqda. Bu esa borliq muammosi bo'yicha yana yangidan-yangi konsepsiya, nazariyalar ilgari surilishi mumkinligidan, bu borliq to'g'risidagi mavjud tasavvurlarning yanada chuqurlashishidan dalolat beradi.

Lekin, biz uchun eng muhim, falsafiy tafakkur taraqqiyoti nuqtai nazaridan favqulodda ahamiyatga ega holat shundaki, Sharq mutafakkirlari, xususan o'rta asr musulmon xalqlari ilm-fani, falsafasining buyuk vakillari Jobir, Eronshaxriy, Roziy, Beruniy, Bag'dodiylar borliq muammosi bo'yicha substansional konsepsiyanı, Kindiy, Forobiy, Ibn Miskavayh, Ibn Sino, Umar Xayyom kabi Vatanimiz - Turkistondan, yetishib chiqqan buyuk mutafakkirlarimiz relyatsion konsepsiyanı o'z davri fani, falsafasi taraqqiyoti darajasida xulosalab berishda favqulodda o'rin tutganlar, xizmat ko'rsatganlar. Ayniqsa, o'rta asrlar ilm-fani, falsafasi asoschilar, quruvchilar bo'lishgan relyatsion konsepsiya vakili Ibn Sino bilan substansional konsepsiya vakili Beruniyning yozishma-maktublari vositasida 3 bosqichda, muntazam va uzoq davom etgan qizg'in ilmiy-falsafiy bahs-munozaralari butun o'rta asr ilm-fani, falsafasida borliq, uning mohiyati, taraqqiyoti, mavjudlik usuli va shakllari borasidagi bahs-munozaralarning eng yuksak cho'qqisi - toji bo'lgan edi. Buning ma'nosini faqat XX asr boshiga kelgandagina jahon ilm-fani, falsafasi, madaniyati tadqiqotchilar, tarixchilar, xususan, K.Brokemann, J.Sarton va boshqalar tushunib yetdilar va Sharq mutafakkirlarining ilm-fan, falsafa taraqqiyotidagi yutuqlariga yuksak baho berdilar, ularni e'tirof etdilar. [ Brokemann. 1902; Sarton, G. 1948.]

Ana shu nuqtai nazaridan Sharq mutafakkirlarining, shu jumladan, Abu Rayhon Beruniyning borliq, uning mohiyati, mavjudligi, taraqqiyoti, haqidagi substansional qarashlarining kelib chiqishi, evolyutsiyasi, o'ziga xosligi, bu ta'limotga qo'shgan hissalarini qayta anglash, bunda ular qo'llagan usul va uslublarini tadqiq qilish, umumlashtiruvchi xulosalarga kelish falsafiy tafakkur taraqqiyoti nuqtai-nazaridan muhim ilmiy nazariy ahamiyat kasb etadi.

## XULOSA

Shunday qilib, biz tadqiq etayotgan Beruniyning naturfalsafiy ta'limoti, borliq, substansiya, uning mohiyati, mavjudlik usuli, o'zgarishi, taraqqiyoti, harakat va uning shakllari, fazo, vaqt haqidagi qarashlari, G'arb olimlarining yuqoridagi xulosalari, bergen baholari Beruniyning mazkur masala bo'yicha qarashlarini maxsus tadqiq etish, bunda,

birinchi navbatda, allomaning borliq masalasini o'ziga xos tarzda qo'yganligini yoritish lozimligini ko'rsatadi.

## BIBLOGRAFIYA

ABU RAYXON BERUNIYning o'z asarlariga o'zi tuzgan ro'yxati / /Beruniy tug'ilgan kunining 1000 yilligiga bag'ishlangan to'plam. (1973). - Toshkent: Fan. - B. 230-243;

АШУРОВ, Г. (1965). Философские взгляды Носири Хисрава. - Душанбе. - С. 101-102.

АЛЬ-ФАРАБИ. (1972). О том, что должно предшествовать изучению философии // Аль-Фараби. Философские трактаты. Алма-Ата: Наука, С. 430

BROCKELMANN, C. (1902). Geschiete der arabischen Litteratur. Bd. I-II. -Weimar-Berlin;

ФРОЛОВА, В.А. (1983). Проблемы познания в арабской философии. - Москва: Наука. - С. 169

ЛЕЙ, НЕМЕЦКИЙ. (1962). Очерки по истории средневекового материализма. - Москва: ИЛ. - С. 588

LEY, HERMANN. (1966). Geschichte der Aufklarung und des Atheismus.-Berlin. - Р. 1-2.

КАРИМОВ, Ю.И. (1957). Неизвестное сочинение ар-Рази "Книга тайны тайн" - Ташкент: Фан.

Классическая наука в Центральной Азии и современная цивилизация. (2000). - Ташкент. с .416;

NOSIROV, A. (1950). Beruniy to'g'risida bo'lgan manbalarning qisqacha mazmuni //Beruniy - o'rta asrning buyuk olimi. - Toshkent: O'zFA. - 168 b.

NOSIROV, R.N. & SIROJIDDINOV, SH.S. & ZIYAUTDINOVA, X.A. (2007). O'rta Osiyolik allomalarining falsafiy qarashlari. - Toshkent: Falsafa va huquq, - В. 20-22.

ПЕТРУШЕВСКИЙ, И.П. (1996). Ислам в Иране. Курс лекций. С. 62-73;

USMONOV, M.A. (1975). Islom aqidalari va marosimlari. - Toshkent:O'zbekiston, - 120 b.

ПОЛОСИН, В.В. (1989). "Фиксрист" Ибн Ан-Нодима как историк - памятник культуры X в. - Москва: Наука.

Qur'oni Karim. (2004). Tarjima va ilmiy-tarixiy izohlar. 1-kitob. Usmonov M.A, Irisov A., Abdullaev I., Uvatov U. - Toshkent: Fan. B. 67-68.

QODIROV, M. (2009). Markaziy Osiyo, Yaqin va O'rta Sharq xalqlari falsafiy tafakkuri. - Toshkent: Falsafa va huquq. - B.17.

RASULOV, A. & ABDURAHMONOV, M. (1956). Beruniy bilan Ibn Sinoning savol-javoblari. - Toshkent: Fan;

Советский энциклопедический словарь(1982-83). ред. Прохоров, А.М. Москва. С.1600

SHERMUXAMMEDOVA, N.A. (2013). Borliq va rivojlanish falsafasi.- Toshkent:Noshir, 720b.

TO'RAEV, B.O. (2009). Hozirgi zamон tabiatshunosligi konsepsiyalari fani bo'yicha asosiy tushunchalarga izohli lug'at. - Toshkent: Tafakkur. - B. 7.

TO'RAEV, B.O. (2005). Borliq // Falsafa darsligi. -Toshkent: O'zbekiston. - B. 45.

ШАРИПОВ, А. (1965). Маленькие страницы переписки мэйду Бируни и Ибн Синой // Общественные науки в Узбекистане, - № 11;

ШАРИПОВ, А. (1972). Великий мыслитель Беруни. -Ташкент: Узбекистан. - С. 12;

SARTON, G.S. (1927). Intraduction to the history of Science. Baltimore. vol.I. PP. 622-630;

ХАЙРУЛЛАЕВ, М. (1967). Мировоззрение Фараби и его значение в истории философии. - Ташкент: Фан - С. 179

XAYRULLAYEV, M. (1971). Uyg'onish davri va Sharq mutafakkiri. - Toshkent: O'zbekiston. - B. 118-119.

XAYRULLAYEV, M. (1963). Al-Forobiya va uning falsafiy risolalari. - Toshkent.

## **TRANSLITERATION**

ABU RAYKHAN BERUNIY's own list of works // Collection dedicated to the 1000th anniversary of Beruni. (1973). - Tashkent: Fan. - B. 230-243;

ASHUROV, G. (1965). Filosofskie vzglyady Nosiri Khisrava. - Dushanbe. - С. 101-102.

AL-FARABI. (1972). O tom, chto doljno predstovovat izucheniyu filosofii // Al-Farabi. Philosophical treatises. Alma-Ata: Nauka, S. 430

BROCKELMANN, C. (1902). Geschichte der arabischen Litteratur. Bd. I-II. -Weimar-Berlin;

FROLOVA, V.A. (1983). Problems of knowledge in Arabic philosophy. - Moscow: Science. - S. 169

LEY, NEMETSKIY. (1962). Essays on the history of medieval materialism. - Moscow: IIL. - S. 588

LEY, HERMANN. (1966). Geschichte der Aufklarung und des Atheismus.-Berlin. - P. 1-2.

- KARIMOV, Yu.I. (1957). Neizvestnoe sochinenie ar-Razi "Kniga tayny tayn" - Tashkent: Fan.
- Klassicheskaya nauka v Tsentralnoy Azii i sovremennaya tsivilizatsiya. (2000). - Tashkent. s .416;
- NOSIROV, A. (1950). Summary of sources about Beruni // Beruni - a great scientist of the Middle Ages. - Tashkent: UzFA. - 168 b.
- NOSIROV, R.N. & SIROJIDDINOV, SH.S. & ZIYAUTDINOVA, X.A. (2007). Philosophical views of Central Asian scholars. - Tashkent: Philosophy and Law, - P. 20-22.
- PETRUSHEVSKIY, I.P. (1996). Islam in Iran. Course lecture. C. 62-73;
- USMONOV, M.A. (1975). Islamic beliefs and rituals. - Tashkent: Uzbekistan, - 120 p.
- POLOSIN, V.V. (1989). "Fiksrist" Ibn An-Nodima as a historian - a monument of culture X v. - Moscow: Science.
- The Holy Quran. (2004). Translation and scientific-historical commentary. Book 1. Usmonov M.A, Irisov A., Abdullaev I., Uvatov U. - Tashkent: Fan. B. 67-68.
- QODIROV, M. (2009). Philosophical Thought of the Peoples of Central Asia, the Near and Middle East. - Tashkent: Philosophy and Law. - B.17.
- RASULOV, A. & ABDURAHMONOV, M. (1956). Questions and Answers of Beruni and Ibn Sina. - Tashkent: Fan;
- Soviet encyclopedic dictionary (1982-83). ed. Proxorov, A.M. Moscow. C.1600
- SHERMUXAMMEDOVA, N.A. (2013). Philosophy of Existence and Development.- Tashkent: Publisher, 720p.
- TORAEV, B.O. (2009). A Glossary of Basic Concepts of Modern Natural Science Concepts. - Tashkent: Tafakkur. - B. 7.
- TORAEV, B.O. (2005). Existence // Textbook of Philosophy. - Tashkent: Uzbekistan. - B. 45.
- SHARIPOV, A. (1965). Malenkie stranitsy perepiski meydu Biruni i Ibn Sinoy // Obshchestvennye nauki v Uzbekistane, - № 11;
- SHARIPOV, A. (1972). Great example Beruni. -Tashkent: Uzbekistan. - S. 12;
- SARTON, G.S. (1927). Intraduction to the history of Science. Baltimore. vol.I. PP. 622-630;
- XAYRULLAEV, M. (1967). Mirovozzrenie Farabi i ego znachenie v istorii filosofii. - Tashkent: Fan - C. 179
- KHAYRULLAYEV, M. (1971). Renaissance and Eastern thinker.

- Tashkent: Uzbekistan. - В. 118-119.

KHAIRULLAYEV, M. (1963). Al-Farabi and his philosophical treatises. - Tashkent.

**Умарова Розигуль Шералиевна (Узбекистан, Ташкент)**

## **ОБОСНОВАНИЕ И ПРОДВИЖЕНИЕ НАТУРФИЛОСОФСКИХ ИДЕЙ В СРЕДНЕВЕКОВОЙ МУСУЛЬМАНСКОЙ ФИЛОСОФИИ**

**Аннотация.** Актуальность изучения средневековой мусульманской философии видится в том, что мусульманский Восток сегодня находится на пути самостоятельного социально-политического развития. Большое значение имеют в современной идеологической жизни духовные традиции в Азии и Африке в контексте мусульманской философии и идей Бируни.

Кроме того, обращение автора к некоторым работам Бируни, основываются на взглядах на вселенную, ее структуру и формы существования, на идеях, выдвинутых Бируни, которые требуют переосмыслиния и оценки в двадцатом и начале двадцать первого веков.

**Ключевые слова:** табийон, машшион, ишрокион, редукция, субациональная концепция, реляционная концепция

**Ключевые слова (2):** натурфилософия, перипатетизм, деизм, бытие, субстанция, движение, пространство, время, воображение, материя, душа, атрибут, инструментальность.



**DUNYO MADANIYATI VA DINIY AN'ANALAR /  
МИРОВАЯ КУЛЬТУРА И РЕЛИГИОЗНЫЕ ТРАДИЦИИ /  
WORLD CULTURE AND RELIGIOUS TRADITIONS**



UDK: 10+796.5  
<http://dx.doi.org/10.26739/2181-9505-2020-8-8>

**Mirzarahimov Baxtiyor Xoshimovich**

Farg'ona davlat universiteti Falsafa kafedrasi o'qituvchisi,

E-mail: alfargoniy.uz@gmail.com

(O'zbekiston, Farg'ona)

**TURIZMNING GNOSEOLOGIK VAZIFALARI VA ULARNING  
FALSAFIY TAHLILI**

**Annotatsiya:** Maqolada turizmning gnoseologik vazifalari, funksiyalari tahlil qilingan bo'lib, turizmning shaxsda intellektual qobiliyatlarni tarbiyalash xususiyatlari, ularni ijtimoiy taraqqiyotning da'vatkor omiliga aylantirish imkoniyatlariga egaligi ko'rsatilgan. Shuningdek, turizmning gumanistik, informatsion, tarbiyalovchi, kognitivlik va ijtimoiy-normativ asosiy funksiyalariga izohlar berilgan. Turizmning metodologik bilimlar tizimi nuqtai nazaridan aksiologik, texnologik, shaxsiy-ijodiy, kognitiv komponentlari haqida so'z yuritilgan. Ta'larning uzlusizligi, barkamol avlod tarbiyasi, kasb-hunar egallashda yoshlarning jismoniy va ma'naviy salohiyatlarini tarbiyalashda turizm muhim jarayon sifatida baholangan. Turistik faoliyat natijasida insonda empirik bilimlar ilmiy bilimlarga aylanish omillari ko'rsatilgan. Turizmning intuitsiyani namoyon bo'lishidagi o'rni va ahamiyati yuqori ekanligi, sayr paytida, dam olayotganda paydo bo'ladigan yangilik va g'oyalar hamda onglilik va ongsizlik paradoksi dialektik tahlil qilingan. Shuningdek, turizmni "Kitobxonlikni rivojlantirish strategiyasi" sifatida foydalanish takliflari berilgan.

**Kalit so'zlar:** gnoseologiya, turizm, kognitiv, intellektuallik, intuitsiya, ongsizlik.

**Kalit so'zlar(2):** ilmiy bilimlar, amaliy bilimlar, turizm falsafasi, turizm gnoseologiyasi, gnoseologik amaliyat

## KIRISH

Hozirgi zamон falsafa fanida olib borilayotgan ilmiy tadqiqotlar, inson intellektini rivojlantirishga oid turli nazariy yondashuvlar, ilmiy konsepsiylar, turli nazariyalar, bahs-munozaralarni ilgari surmoqda. Globallashuv sharoitida shaxsda yuksak intellektuallikni rivojlantirish, falsafiy jihatlarini tadqiq qilishda turli xil yondashuvlar, to'xtovsiz munozara, ilmiy bahs, tortishuvlar olib borilmoqda. Shaxs o'zida yuksak intellektuallikni rivojlantirish uchun avvalo o'z-o'zini tarbiyalashi, ijtimoiy ko'nikmalar mazmunini bilishi va ulardan samarali foydalanishi, ichki mahorati, qobiliyatini kamolga yetkazib borishini yuqori darajada tashkil etish zarur bo'ladi. Shaxsda yuksak intellektuallik xususiyatlari diniy va dunyoviy bilimlarni egallash hamda o'z o'zini anglash, fikrlash, kasbga oid ko'nikma va malakalarga ega bo'lishni talab etadi. Shu o'rinda qayd etish lozimki, insonning yuksak intellektual madaniyati uni oldida turgan murakkab iqtisodiy, ijtimoiy muammolarning yechimini topishda va globallashuv sharoitida ma'naviy inqirozdan olib chiqishda, xatto, ilohiy e'tiqodining mustahkam bo'lishida muhim rol o'ynaydi. [Siddikov, I.B. 2018: b.62]

Shaxs ma'naviyati tarkibida uning intellektual tafakkuri, aqliy faoliyati va fan qadriyatları ijtimoiy rivojlanishga jiddiy ta'sir ko'rsatmoqda, modomiki, shunday ekan, uning aqliy-malakaviy omilkorligi, ilmiy tafakkuri va ilm-fan sohasidagi faolligining o'ziga xos qonuniyatlarini tahlil etish o'ta dolzarb muammo sanaladi. Tabiiy-ijtimoiy muammolar globallashib, insoniyat hayoti, avvalambor, umumbashariy va planetar ziddiyatlarga aylanib bormoqda. XXI asr ijtimoiy progressiv taraqqiyotining mazmunini hamkorlik va "intellekt mexanizmi", zamonaviy axborotlashgan jamiyatda boylik yaratish asosini ilmiy bilimlar va axborotlar tashkil etadi. Shu sababli inson kapitali masalalari, u to'g'risidagi qonunlar ilmiy bilimlar rivojlanishiga emas, balki butun jamiyat taraqqiyotiga daxldor muammoga aylanib qoldi. Fan va texnika rivojlanishi natijasida intellektual kapital bizning katta boyligimizga aylanib bormoqda. Uni qanday ko'paytirish va shakllantirish mumkinligi to'g'risida esa jamiyatshunos olimlar izlanish olib bormoqdalar.

Bizning fikrimizcha, aynan turizm shaxsda intellektual qobiliyatlarini tarbiyalashi, ularni ijtimoiy taraqqiyotning da'vatkor omiliga aylantirish imkoniyatlariga egadir.

Turizm masalasiga faqatgina iqtisodiy va huquqiy nuqtai nazardangina emas, balki falsafiy yondashuv ham zarurdir. Turizmni falsafiy o'rganilganda madaniyatshunoslik nazariyasi asosida tahlil qilish

maqsadga muvofiq. Sayohatni amalga oshirishda inson obyektiv muhitni bilib oladi, madaniy, axloqiy qadriyatlar bilan tanishadi va ularni asrab-avaylash kerakligini his etadi.

Turizmning asosiy funksiyalari gnoseologik, gumanistik, kommunikativlik, informatsion, tarbiyalovchi va ijtimoiy-normativdan iboratdir. Metodologik bilimlar tizimi nuqtai nazaridan turizm rivoji: aksiologik, texnologik, shaxsiy-ijodiy, kognitiv komponentlariga egadir. Turizmning eng muhim vazifasi - bu kognitiv funksiyasidir. Bu esa boshqa davlatlarning madaniyatini o'rganish, boshqa hududlar va mamlakatlardan o'rtaida madaniyatlararo muloqot vazifasini bajarish, madaniyat sohasidagi yutuqlarga ko'maklashish, kognitiv jarayonlarni faollashtirish hamda shaxsiy muloqotni uyg'unlashtirish demakdir. Turizm asosan ilmiy bilishning umumiyligi xossalari, qonuniyatlarini ochishga xizmat qiladi. Inson dunyoni ilmiy anglashida turizmning o'rni katta. Shu sababli, bu faoliyatni gnoseologik va ijtimoiy falsafiy jihatdan o'rganishga qaror qildik. Turizmning gnoseologik vazifasi shundan iboratki, inson sayohat qilish orqali joylarning nomlari, tarixiy kelib chiqishi, o'simlik va hayvonot dunyosini o'rganishi, xaritalarni o'qishi, chizgilar tayyorlashi, kundalik va sayohat esdaliklarini yozib borishi mumkin, hamda *tarixiy arxitektura ob'ektlarları, turli xalqlarning urf-odatlari, an'analari, marosimlari bo'yicha intellektual salohiyatini oshirib*, bilim va tajribalarga ega bo'ladi. Insonni ijtimoiy-madaniy hayotga moslashish imkonini beradi.

Turizm ijtimoiy-pedagogik jarayon sifatida muhim ahamiyatga ega bo'lgan omillardan biridir. Ta'limning uzlusizligi, barkamol avlod tarbiyasi, kasb-hunar (mutaxassislikni) egallashda yoshlarning jismoniy va ma'naviy salohiyatlarini tarbiyalashda turizm muhim ahamiyatga egadir. Shu nuqtai nazardan turizm, insonda empirik bilimlarni ilmiy bilimlarga aylanish jarayonini xosil qiladi. Ilmiy bilimlarni o'rganishning soddashtirilgan modeli bilan tanishtirish zamonaviy turizmning asosiy vazifasidir.[Гализдра, А.С. 2006: с.43]

## MATERIALLAR VA METODLAR

Bilishning mohiyati, mazmuni bilan bog'liq masalalarning tahlili uzoq davrga borib taqaladi. Turizmda bilishning ilmiy turiga Markazi Osiyoda asosan IX - XII asrda asos solingan bo'lib, bu davrda turizm iborasi o'rnila sayr, safar, sayohat so'zi ishlatilgan. Sayyohlik tufayli kishilar bilimini oshiradigan xozirgi davrda turizmni rivojlangan turi ziyorat turizmiga asos solingan.[To'xliyev, I.S. & Hayitboyev, R. & Safarov, B.Sh. 2014: b.16]. Shuni alohida aytish kerakki, O'rta Osiyo allomalari

tomonidan IX - XII asrlarda yozilgan shox asarlar, ilmiy kitoblar allomalarning turli davlatlarga hamda turli geografik hududlarga sayohatlari natijasida paydo bo'lgan[Hasanov, H. 1981: b.7]. Buning natijasida, allomalarimiz o'zlarini o'rabi turgan olam, undagi narsa va hodisalarning mazmun-mohiyatini o'rganishga harakat qilganlar, ularning qadri paydo bo'lishi, ahamiyati to'g'risida fikr yuritganlar. Zamonlar o'tishi, jamiyat rivoji davomida bu boradagi masalalar ko'lami kengaygan, ularni hal qilishning ahamiyati ortavergan. Ong va bilish, tana va ruh bilan bog'liq mavzular ko'plab afsona hamda asotirlar, diniy, ilmiy-siyosiy qarashlarning o'zagini markaziy qismini tashkil etgan.[Shermuxamedova, N.A. 2009: b.45]

Bu borada Beruniyning aytishicha odamlar o'rtasidagi munosabatlar, kishilarning yashash tarzi, moddiy ehtiyoj, qiziqish, manfaat, talab va maqsadlari ijtimoiy bilimlarni vujudga keltirgan va takomillashtirgan. Beruniy tajribaga asoslangan bilimlarni puxta egallagan bo'lib, o'z faoliyatida tajribaviy uslublardan mohirona foydalangan.[To'rayev, B. 2016: b.38] Tajriba uslubi birinchi marotaba sezilarli darajada tabiatshunoslik amaliyotiga kirayotgan edi. Abu Rayhon Beruniy umri davomida doimo sayohatda yurib, tadqiqotlar o'tkazish bilan shug'ullangan. Xorazmga, Hindistonga, Kaspiy dengizi sohili davlatlariga hamda Bog'dodga sayohat qilib 70 ta astronomiyaga, 20 ta matematikaga, 12 ta geografiya va geodeziyaga, 3 ta mineralogiyaga, 4 ta kartografiyaga oid asarlarni yozib qoldirgan. Abu Rayhon Beruniyning dastlabki asarlaridan "Qadimgi xalqlardan qolgan yodgorliklar" asari Qadimgi Xorazmda o'tgan xalqlarning, qadimgi yahudiylar, nasroniylar, majusiyalar va musulmonlarning urf-odatlari, an'analari, bayramlari, kalendarlari, dirlari, payg'ambarlari, muqaddas kitoblari haqidagi barcha ma'lumotlarni to'plagan yaxlit ensiklopediya bo'lib, u Yevropada "Xronologiya" nomi bilan mashhurdir. Alloma Jurjon hukumdori Vashimgir Saroyida yashab yurgan davrida qimmatbaho toshlar va minerallar haqida "Mineralogiya" asarini yozgan. Bu asarda muallif 300 dan ortiq minerallar haqida va ularning fizik, ximiyaviy xususiyatlarini tushuntirib bergan. Bundan tashqari, Abu Rayhon Beruniyning sayohat qilish ilmiga oid "Geodeziya"(Turar joylar orasidagi masofalarni aniqlash uchun manzillarning chegaralarini belgilash), "Munajjimlik san'atidan boshlang'ich tushunchalar", "Hindiston", "Dorivor o'simliklar haqida kitob" asarlari bizgacha yetib kelgan[To'rayev, B. 2016: b.42-43].

Bilish muammosi Abu Ali ibn Sinoning (980-1037) ham diqqat markazida turgan. Olim asarlarining jami 450 ta katta qismi falsafa

muammolariga bag'ishlab yozilgan bo'lsa-da, afsuski, ularning ko'pchiligi (masalan, "Adolat" nomli falsafiy ensiklopediyasi, "Sharq falsafasi", "Yaxshi ish va gunoh" asarlari bizgacha yetib kelmagan. Bilish masalalari ibn Sinoning "Qushlar tili", "Donishnoma", "Tib qonunlari" kabi(100ga yaqin) asarlarida ham o'z ifodasini topgan. Uning nazarida, o'z ibtidosini Allohdan olgan borliq va tabiat insonni o'rabi turuvchi abadiy makondir. Shu jihatdan uni bilishdagi ahamiyati, qadri beqiyos, inson esa hamma ilmlarni tabiatdan oladi, undan o'ziga davo izlaydi va topadi[Shermuxamedova, N.A. 2009: b.20].

Shuningdek, Ibn Sino Kasbiy dengizi bo'yida, Marv daryosi bo'ylarida va Qoraqum sahrosini kesib o'tishda, Eron, Turkmaniston mamlakatlariga sayohatlar davrida dorivor o'simliklarning o'sish hududlari, ularning shifobaxshlik xususiyatlarini o'rganish davomida joylarning geografik xaritalaridagi o'rni, tabiiy iqlim sharoitlari, ayniqsa, buloqlar, betakror tabiiy go'shalar, issiq suvlarning davolash xususiyatlari haqida juda ko'plab ma'lumotlarni o'z asarida qayd etgan. Alloma o'zining "Tib qonunlari" asarida safarga chiqish va safar paytida qo'llaniladigan muolajalar haqida ma'lumot qoldirgan. Chunonchi, issiqdan saqlanishi, ayniqsa, safarda va issiqda safar qiluvchi kishilar, sovuq vaqtda safar qiluvchi kishining va sovuq urgan kishi muolajasi, safarda (bet) rangni saqlash haqida, safar qiluvchi kishining turli suvlar zararidan saqlanishi haqida, dengizda safar qiluvchi kishilarga maslahatlar jumlasidandir. Ibn Sino issiqda safar qiluvchi kishi haqida shunday fikrlarni aytadi: "Issiqda safar qiluvchi kishilar ba'zan yo'l yurishdan ilgari arpa talqoni, mevalar suviga muhtoj bo'ladilar, shuning uchun ushbu narsalarni olib yurishlari shartdir. Safardagi kishi ko'kragini quyoshdan saqlamog'i va ko'kragiga ispag'ul urug'i shirasi, semizo't kabi o'simliklarni surtishi kerakligi haqidagi qimmatli ma'lumotlarni qoldirgan"[Abu Ali Ibn Sino, 1993: b.120].

Bundan ko'rindaniki, Markaziyo Osiyo Renessans davri allomalari sayohat qilish va u orgali bilimlarga ega bo'lish haqidagi fikrlarini o'zlarining ensiklopedik asarlarida kelajak avlodga yetkazishga harakat qilganlar.

XX asr 60- yillariga kelib sayohat tushunchasi o'rnida turizm iborasi qo'llanila boshlandi. Bu davrga kelib turizmning yoshlarni tarbiyalashda va ularni komil inson bo'lib shakllanishida o'rni beqiyos ekanligi ma'lum bo'ldi. Shuni aytish kerakki, hozirgi kungacha turizm sotsiologiyasi, antropologiyasi, psixologiyasi, falsafasiga oid ilmiy tadqiqotlar keng miqyosda olib borilmoqda. Bunday tadqiqotchilardan quyidagi olimlarni misol keltirishimiz mumkin. Taniqli ingliz sotsiologi

J.Urri turizm sohasini ijtimoiy dastur sifatida, dunyoni bilishning zamonaviy usuli sifatida talqin etgan. [Urry, J. 1990: b.2] A.Ya.Flier fikricha, "turizm - insonni va uning tana qiyofasini tuzatadi hamda intellektual dam olish usulidir". [Флиер, А.Я. 1998: с.144-146] I.T.Kasavin turizmni "bilimning yangi ontologiyasi" deb nomlab, insonning sayohat qilishi - bilim olish imkoniyati ekanligini ta'riflaydi. [Касавин, И.Т. 1997: б.74]

## MUHOKAMA VA NATIJALAR

Gnoseologik fenomen sifatida turizmning muhim xususiyatlari quyidagilar: 1) maqsad (qadriyatlar) bo'yicha sayohat qilish; 2) estetik-hissiy xususiyati; 3) olam, narsalarning o'zlashtirilishi hamda kognitivlik.

Turizm insonning tabiat va jamiyat bilan ongli, ijodiy aloqasidan iborat bo'lgan faoliyatdir. Ob'ekt bilan amaliy aloqadorligi aynan moddiy narsaning mohiyatini bilish, uning qarshiligini yengib o'tishdan iboratdir. Turizmda inson tabiatning qonun va xossalarni o'rganish bilan bir qatorda yangi imkoniyatlarni ochadi va yangi maqsadlarni o'z oldiga qo'yadi, unga muvofiq tarzda tabiatda mavjud bo'limgan yangi narsalar yaratiladi.

Maqsadga yo'naltirilganlik, estetik-hissiy xarakter va kognitivlik kabi belgilarning umumiyligi hisobga olish turizmni gnoseologik fenomenga aylantiradi.

Mohiyatiga ko'ra turizm insonga estetik-hissiy ta'sir ko'rsatishi orqali bilishda axborotlarning ko'payishiga qaratilgandir. Bu ma'noda turizmni gnoseologik amaliyot deb atash mumkin. Turizmning asosiy shakli va turlari bilan tanishish shuni ko'rsatadiki, u har qanday holda ijtimoiy xarakterga ega. Moddiy borliqni ijtimoiylashgan dunyoga aylantirish jarayoni sifatida namoyon bo'ladi. U orqali inson tabiatni o'z manfaatlari, sivilizatsiya ehtiyojlariga mos o'zlashtirish bilan shug'ullanadi. Turizm eski bilimlarni mustahkamlashi hamda yangi bilim hosil qilishga ham qodir. Unda yana bilish jarayonining hissiy-mushohadaviy darajasi hamda ob'ekt-sub'ekt munosabatlari ya'ni, insonning olam bilan hissiy bog'liqligining o'ziga xos shakli namoyon bo'ladi. Turizmda tabiat bilan birgalikda sub'ektning o'zi ham, xususan individ ham o'zgaradi. Turizm individning hissiy a'zolari, ongi, tafakkuri, g'oyalariga ta'sir qiladi, bunda individ va jamiyatni ham, tabiatni ham o'zaro boyishiga olib boradigan in'ikos, aks etish sodir bo'ladi.

Turizm inson uchun borliqni bilish faoliyati bo'lib, bunda uning bilimi, erki namoyon bo'ladi, ikkinchidan sub'ekt va ob'ektning birligi ko'zga tashlanadi. Inson borliqni anglashda turizmni bilishning asosi

sifatidagi funksiyasini e'tiborga olishimiz kerak. Bilishning asosi sifatida turizm tafakkur tomonidan umumlashtiriladigan, ishlov beriladigan dastlabki axborotni beradi. Voqealarni oddiy tahlil qilish orqali sub'ekt muayyan miqdordagi hissiy obrazlar, tasavvurlarga ega bo'ladi. Sub'ekt tomonidan amaliyatda narsalarga ta'sir qilish, kuzatish ularni tasvirlash, taqqoslash, tasniflash va hokazolar chog'ida ularning juda ko'plab xossalari, sifat, munosabat va aloqalari idrok etiladi. Turizmnning ob'ekt bilan sub'ekt o'rtasidagi aloqani amaliy aloqa deyish mumkin. Ob'ekt bilan amaliy aloqa jarayonida sub'ekt ob'ektning muhim jihatlari to'g'risidagi tushuncha va bilimlarni shakllantiradi, ob'ektning ilmiy tomonlari faqat amaliyatda yetarlicha aniq-ravshan ko'rindi. Turizm ilmiy bilishni shakllantiruvchi kuch hisoblanadi. Bunda turizmnning deterministik funksiyasi namoyon bo'ladi, ya'ni, shaxsda yangi bilimning paydo bo'lishi va amaliy ob'ektlarni hissiy o'zlashtirishdan ratsional bilishga, empirik bilishdan nazariyga o'tishning asosiy sababchisi bo'ladi. Turizm gnoseologiyasida ilmiy bilimlar hosil bo'lishi nafaqat empiriklikdan nazariy tomon, balki nazariydan empiriklikka tomon ham o'tib boradi.

Yuqoridagi fikrlardan kelib chiqib, turizmnning ilmiy bilimlar hosil qiluvchi omil ekanligini ko'rish mumkin. Shuni e'tiborga olish kerakki, intuitsianing namoyon bo'lishida turizmnning o'rni va ahamiyati yuqori bo'lib, gnoseologiya tarixida sayr paytida, dam olayotganda paydo bo'ladigan yangilik va g'oyalar ham ko'plab topiladi. Bu paradoks bo'lib tuyuladi: nima uchun inson hordiq chiqarayotganda intellektual intuitsiya yordamida o'zi dam olganiga qadar shug'ullangan vazifaning yechimi ustida faol va samarali ijod qiladi? Bu borada qiziq fakt ni kuzatish mumkin: inson miyasining bir sekundda axborotni qayta ishlash quvvati ongsiz holatda  $10^9$  ga teng bo'lsa, ongli holatda esa 102 ga teng. [Пономарёв, Я.Л. 1976: б.22-23] Bu katta hajmdagi axborotni ongosti sohasida qo'llashda tezkor aqliy jarayonlardan foydalanish uchun muhim zamin bo'lishini ko'rsatadi. Ongsizlik funksiyasi qisqa vaqt ichida ong amalga oshira olmaydigan ishni nihoyatda tez bajarishga qodirligini anglatadi. Ushbu paradoksni baholab shunday deyish mumkinki, bundagi ziddiyat ongni ongsizlikka faqat bir yoqlama qarama-qarshi qo'ygan holda tushunarsiz va yo'l qo'yib bo'lmaydigan holdir. Ongni ongsizlik bilan bog'liqligining aniq mexanizmini o'rGANISH olim uchun intuitsiya jarayonini boshqarish va ijodiy qobiliyatga kuchli ta'sir qilishga imkon yaratishi mumkin. Biroq, yana bir gnoseologik masalaga - bilishda intuitivlik bilan mantiqiylikning bog'liqligiga e'tibor berish lozim.

Olimlarning o'z ijodi ustidan kuzatish olib borishlari ham juda muhim. Nemis fiziologi G.Golmgolts 1891-yilda qilgan va katta qiziqish uyg'otgan nutqida quyidagi fikrni aytgan edi: "Tan olaman, menga hech qanday yordam kutish zaruriyati bo'limgan vaqtlar juda zavqli bo'lib tuyuladi. Lekin, ko'p hollarda ana shunday kutishga to'g'ri kelgan noxush vaziyatga tushganda men boshqalarga asqatishi mumkin bo'lgan bir holatga duch kelaman va undan tegishli xulosa chiqarib olaman. Endi masalaning yechimi yo'q, deya dam olishga o'tirganda nozik tuyg'ular ohistalik bilan miyaga joylashib oladiki, ularni qachon kelganini payqamay qolasan, kishi. Boshqa holda tasodifan ularning kelganini bilib qolasan, ammo uning qayerdan kelganini bilmaysan. Lekin boshqa vaziyatlarda fikr sizni to'satdan, hech qiyinchiliksiz ko'tarinkilik bilan chulg'ab oladi. Tajribamdan ma'lumki, u hech qachon charchagan miyada hosil bo'lmaydi, hech qachon ish stoli atrofida o'tirgan holda ham vujudga kelmaydi. Har safar men vazifamni miyamda ag'dar-to'ntar qilganimda, uning nozik va tutash joylari qattiq o'rashib qolardi, charchoq o'tib ketgach, vujudning bir soat to'liq dam olishi va hissiy osoyishtalikka o'tishi bilan yana yangi g'oyalar kela boshlaydi. Ular, ayniqsa, oydin tunda, sayr qilayotganda keladi. Fikrga boy bo'lgan bunday onlar, albatta, quvonchlidir, aksincha, vazifalarning yechimidan bu taxliddagi qutqaruvchi fikrlar yo'q paytlar esa ancha noxush kechadi. O'shanday paytda men haftalab, oylab qiyin muammo ustida o'rtanaman". [Гельмгольц Г. 1982: б.22-23].

Fikrlardan ko'rinalidiki, turizm fenomenini falsafiy tahlili ta'llimi rivojlantirishdagi o'rni katta ekanligini isbotlaydi. Mamlakatimizda turizm madaniyatini rivojlantirish orqali yoshlarda bilim tajribalarini yanada rivojlantirish imkoniyatiga ega bo'lamiz.

## XULOSA

Xulosa qilib shuni aytish kerakki, turizm tarbiya taraqqiyotiga bevosita ta'sir etadi, yoshlarning geografiya, biologiya, tarix, geologiya, iqtisod, adabiyot, ma'naviyat va boshqa fanlar bo'yicha olgan bilim hamda malakalarini yanada boyitadi. Tarixiy obidalar bilan tanishish kishilarning ulkan yaratuvchanlik mehnatlarini o'z ko'zlar bilan ko'rish yoshlarning fikr doiralari, bilim va malakalarinigina oshirib qolmasdan, ularda vatanga muhabbat, jamoatchilik ruhini his qilish, xalqlar o'rtasidagi do'stlikni e'zozlash kabi his va tuyg'ularni ham tarbiyalaydi. Yoshlarda turizm madaniyatini rivojlantirish orqali ularda kitobga bo'lgan qiziqishlarini o'stirishimiz, ilmiy bilimlarni yanada rivojlantirishimiz

mumkin bo'ladi. Shu nuqtai nazardan turizmga "Kitobxonlikni rivojlantirish strategiyasi" omili ekanligini alohida qayd etish lozim.

## BIBLIOGRAFIYA

- SIDDIKOV, I.B. (2018). *Social-philosophical aspects of the youth intellectual culture forming. Theoretical&Applied science*. Philadelphia, USA: Journal № 01 (57). p. 62.
- ГАЛИЗДРА, А.С. (2006). Феномен туризма: социально-философский анализ. Автореферат. Саратов: с. 43.
- TO'XLIYEV, I.S. & HAYITBOYEV, R. & SAFAROV, B.SH. & TURSUNOVA, G.R. (2014). Turizm asoslari, Toshkent: b.16.
- HASANOV, H. (1981). Sayyoh olimlar, "O'zbekiston" Toshkent: b-7.
- SHERMUXAMEDOVA, N.A. (2009). Gnoseologiya-bilish nazariyasi.-Toshkent: b.45.
- BAXTIYOR TO'RAYEV. (2016). Buyuk yurt allomalari. "O'zbekiston" - Toshkent: b.38
- SHERMUXAMEDOVA, N.A. (2009). Gnoseologiya-bilish nazariyasi.-Toshkent: b.20
- ABU ALI IBN SINO (1993). "Tib qonunlari" 1-jild. muharrir Tohir Ibrohimov. Abdulla Qodiri Toshkent: b.120
- URRY, J. (1990). The Tourist Gaze: Leisure and Travel in Contemporary Societies. London: p. 2
- ФЛИЕР, А.Я. (1998). Массовая культура и ее социальные функции// ОНС.. № 6.с.144-146
- КАСАВИН, И.Т. (1997). "Человек мигрирующий": онтология пути и местности// Вопросы философии.. № 7. с. 74
- ПОНОМАРЁВ, Я.Л. (1976). "Психология творчества" Москва: с. 213-220.
- ГЕЛЬМГОЛЬЦ, Г. (1982). "Публичные лекции, читанные в Императорском Московском университете в пользу Гельмгольцевского фонда". Москва: с. 22-23.

**Мирзарахимов Бахтиёр Хошимович (Узбекистан, Фергана)**

## ГНОСЕОЛОГИЧЕСКИЕ ФУНКЦИИ ТУРИЗМА И ИХ ФИЛОСОФСКИЙ АНАЛИЗ

**Аннотация:** В статье анализируются гносеологические функции туризма и показано, что туризм способен

трансформировать свои интеллектуальные способности в качестве движущей силы социального развития. Существуют также объяснения основных функций гуманистического, познавательного, образовательного, и социально-нормативного туризма. В ней рассматриваются аксиологические, технологические, личностные, творческие и когнитивные компоненты с точки зрения системы методологических знаний туризма. С точки зрения преемственности образования, воспитание гармонично развитого поколения, туризм рассматривается как важный процесс воспитания физического и духовного потенциала молодежи. В результате туристической деятельности человека эмпирические знания превращаются в научные знания. Есть также предложения по использованию туризма в качестве "Стратегии развития книги".

**Ключевые слова:** гносеология, туризм, когнитивный, интеллектуальный, интуиция, бессознательное.

**Ключевые слова (2):** научные знания, практические знания, философия туризма, гносеология туризма, гносеологическая практика





УДК 656.835.1..75.046.3  
<http://dx.doi.org/10.26739/2181-9505-2020-8-9>

**Орехова Светлана**

доцент кафедры культурологии и информационной деятельности, Мариупольского государственного университета  
кандидат исторических наук, доцент,

(Украина, Мариуполь)

E-mail: sv.orehova@ukr.net

## **СЕМИОТИКА ПРАВОСЛАВНОЙ ИКОНОПИСИ В КОНТЕКСТЕ ФИЛАТЕЛИИ**

**Аннотация.** В статье представлен краткий обзор филателистических выпусков, сюжетные линии которых, воссоздают святоотеческие произведения духовного православного искусства.

Воссоздание произведений мировой культуры на почтовых марках связано со значительным расширением тем, которым стали посвящаться почтовые выпуски в первой половине XX в., а также благодаря современным полиграфическим технологиям. Учитывая постоянный интерес филателистов к этой тематике, почтовые администрации многих стран мира ежегодно эмитируют почтовые выпуски в рамках серии "искусство". Изобразительный контекст почтовой марки предоставляет возможность восприятия сконцентрированной информации о духовном, культурном наследии человечества.

**Ключевые слова:** икона, иконография, образ, семиотика, искусство, православие, почтовая марка, коллекционирование.

**Ключевые слова (2):** ценности православного искусства, государственные почтовые выпуски, почтовая миниатюра, филателистический материал.

## **ВВЕДЕНИЕ**

В мире филателии есть особая предметная область тематического коллекционирования знаков почтовой оплаты именуемая "искусство". Композиции таких выпусков, посвящены шедеврам мировой культуры - картинам, скульптурам, другим произведениям и видам искусства.

Изучая каталогизированные филателистические материалы, автором проанализированы эмиссии почтовых администраций: СССР, Российской Федерации, Украины, Польши, Австралийского Союза, США. В работе отмечены клубные выпуски Ассоциации филателистов Украины, Союза украинских филателистов Австрии, которые дополняют, раскрывают, популяризируют тот или иной государственный выпуск.

Обладая семиотическим аспектом, почтовая марка вписывается во всеобщую символическую, знаковую теорию изображения как художественного, так и информационного.

## **МАТЕРИАЛЫ И МЕТОДЫ**

Целью данного исследования является анализ изобразительного контекста почтовой марки как невербального текста, призванного раскрыть и приобщить к пониманию, изучению духовного наследия православного искусства.

